

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi” kafedrasi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ta'lif yo'naliishi 5111600 – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
huquq ta'lifi”**

**“QONUN USTUVORLIGI – DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA
ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHNING ASOSI”**

Bajardi:

Tarix fakulteti 4-kurs talabasi:

Samatova Zilola

Ilmiy rahbar:

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'lifi” kafedrasi katta o'qituvchisi:**

H.Usarov

QONUN USTUVORLIGI – DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHNING ASOSI

Reja:

I. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATINING MOHIYATI, BELGILARI VA XUSUSIYATLARI

- 1.1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning mohiyati.
- 1.2. Demokratik huquqiy davlatning o'ziga xos belgilari va xususiyatlari

II. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

- 2.1. Qonun ustuvorligini ta'minlashda demokratik islohotlarning o'rni.
- 2.2. Qonun ustuvorligini ta'minlashda sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasidagi vazifalar.
- 2.3. Yuksak huquqiy madaniyat – qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim sharti.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

“Biz yurtimizda yangi davlat, yangi jamiyat qurish yo’lida qanday ish qilsak, ularning barchasini xalqimiz bilan bamaslahat qilamiz.¹”

Sh.Mirziyoyev

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi** taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko’zga tashlanmoqda. Shu ma’noda Harakatlar strategiyasi O’zbekistonni tez sur’atlar bilan o’zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo’ljallangan muhim dasturilamaldir, desak, ayni haqiqat bo’ladi. Bu keng ko’lamli, noyob hujjat davlatimizning barcha sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari o’rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, elu yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyat va daxldorlik tuyg’usini oshirish, aniq tizim asosidagi samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayotganini hozirgi kunda yurtimizda va xorijdagi nufuzli ekspert va tahlilchilar, jahon siyosat maydonida katta o’rin tutadigan atoqli davlat va siyosat arboblari keng e’tirof etishmoqda.

Hozirgi vaqtida davlat va jamiyat boshqaruving barcha bosqichlarida tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom, qabul qilinayotgan har bir qonun, farmon va qaror, joriy etilayotgan yangilikka ongli munosabat birinchi o’ringa chiqib, ishchanlik muhiti keng qaror topib borayotganiga barchamiz guvoh bo’lmoqdamiz.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. T. “O’zbekiston”, 17-bet

Har bir sohada davlat tomonidan belgilab berilgan aniq va samarali tizim va standartlar asosida ish tutish, masalan, iqtisodiyot sohasini oladigan bo'lsak, nafaqat mahsulotlar sifatini, balki shu mahsulotlarni ishlab chiqaradigan odamlarda kasbiy rivojlanishning uzlucksizligi, ularda o'z shaxsiy mas'uliyatni doimo chuqur his etib yashashni ham ta'minlaydi, bu esa faoliyatda barqarorlik, izchillik va sifat omillariga rioya etishni zaruratga aylantiradi.

Harakatlar strategiyasi odamlarni ochiqlik, oshkorlik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga da'vat etmoqda. Har bir soha faoliyati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lган, fuqarolik jamiyatining ajralmas bir qismi bo'lган jamoatchilik nazorati ostida rivojlanishi zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Bunday muhitda insonniig davlat, jamiyat va o'zi oldida mas'uliyatni to'la his etib yashashi, so'zi bilan ishi bir bo'lishiga rioya etish fazilatlari asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda huquqiy demokratik asosdagi xalq davlatini barpo etish yo'lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Boshlagan barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi bitta – adolatli jamiyat barpo etish»¹. Adolatli jamiyatda insonni – shu jamiyat fuqarosining huquqi, sha'ni, qadr-qimmati qadrlanadi. Fuqarolik jamiyatini shu jamiyat fuqarolarining o'zlari shakllantiradilar. Bu, avvalo, ularning huquqiy tarbiyasi, madaniyati va ongi qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o`ziga xos bo'lган taraqqiyot yo'lini ya`ni, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin, ochiq demokratik davlat qurish vazifasini asosiy maqsab qilib belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlab o'tganidek: “Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat

¹ Каримов И.А.Адолат хар хар ишда хамрохимиз ва дастуримиз бўлсин. Биз келажагимизни ўз кўлими билан курамиз. Т.7. –Т. Ўзбекистон, 1999. Б.239..

qurmoqchimiz.. Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo`nalishi bo`lmog'i shart".¹

Darhaqiqat, adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog'liqdir. Yurtboshimiz belgilab bergenlaridek, qabul qilinayotgan qonunlarimizning zamirida adolat yotishi lozim. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi adolatning tantana qilishiga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo`lishi, o`zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Bu qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratik qaror topadi va mustahkam bo`ladi. Chunki barcha demokratik institutlar, inson huquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri – jamiyat a`zolarining qonun oldidagi tengligining, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligining ta`minlanganligidir. Shu bilan birga, Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta`minlashdan iborat bo`lmog'i lozim.

“Qonun ustuvorligini ta`minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo`ysundirish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi”.²

Huquqiy davlat tushunchasi demokratik davlat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jahan tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, demokratik,

¹ Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma`ruza. 1995 yil 23 fevral. “Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir” kitobida, 3-jild, T.: “O`zbekiston”, 1996. 10-b.

² Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. Ikkinci chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma`ruza. 2001 yil 29 avgust. “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak” kitobida, 10-jild, - T.: “O`zbekiston”, 2002, 28-b.

huquqiy davlat kuch, inqilob bilan emas, balki tabiiy-tarixiy evolyucion yo`l bilan barpo etiladi. Albatta, har qanday jamiyatda huquqiy davlat tushunchasi u yoki bu qonunlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Negaki, qonunlar huquqiy normalar majmui sifatida har bir davlatda mavjud va har qanday hokimiyat ulardan foydalanadi. Hamma gap o`sha qonunlarning qandayligida va ularning qanday bajarilishidadir.

O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Ikkinchichaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma`ruzalarida “Huquqiy davlatning mazmun-mohiyatini belgilaydigan amaldagi kodekslar, qonunlar, me`yoriy hujjatlarni tanqidiy baholagan holda huquqiy davlatni shakllantirish borasida birinchi galda qabul qilishimiz zarur bo`lgan yangi qonun va me`yoriy hujjatlarni aniqlab olishimiz kerak”² deb ta`kidlab o`tdilar.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta`minlashda 1996 yil 31 oktyabrdagi “Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy markazi”ni tuzish to`g’risidagi farmoni alohida ahamiyatga ega bo`lmoqda. Bugungi kunda Milliy markazning mamlakatimiz va butun jahondagi inson huquqlari, erkinliklarini jahon xalqaro huquq normalari asosida himoya etishning ta`sirli vositasi sifatida faoliyati ham ibratli bo`lmoqda. Biroq bu borada demokratik tamoyillarni hayotga to`liq joriy etilishida ayrim jiddiy muammolar ham mavjud. Ulardan biri tom ma`nodagi sud mustaqilligiga erishishdan iboratdir. I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “sudlar tom ma`nodagi mustaqil bo`lgan holdagina qonunlarning qat`iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so`zsiz ta`minlanadi. Qaerda sud mustaqil bo`lmas ekan, shu erda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar”.¹ Darhaqiqat, qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta`minlamasdan

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.: “O`zbekiston”, 29-b.

¹ Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l – demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. 11-jild. T.: “O`zbekiston”, 2003, 31-b.

turib, demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish haqida so`z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyilining mohiyati mamlakatimiz hayotining hamma sohalarida qonun ustuvorligini ta`minlash, qonunga itoatkorlikni shakllantirishdan iboratdir. Bu tamoyilni O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday ifodalaydi: “Butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunga asoslanmog’i zarur. Iqtisodiy o`zgarishlar sinalgan, amaliy kuchga ega bo`lgan qonunga tayangandagina, bu o`zgarishlar sezilarli natijalar berilishi muqarar bo`lishi mumkin”.²

² Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. – T.: “O`zbekiston”, 1995.

I. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATINING MOHIYATI, BELGILARI VA XUSUSIYATLARI

1.1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning mohiyati.

Bizning vazifamiz - to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelini qat'iy amalga oshirishdan iborat.

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

Jamiyat — kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui bo'lib, jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtaсидаги ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir. Jamiyat moddiy ishlab chiqarishsiz bo'lmaydi. Unda insonlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqaga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Jamiyatda jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Odamlar o'zining moddiy ishlab chiqarish faoliyatida irodasi va ongiga bog'liq bo'lмаган holda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadi. Jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. **2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi** davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish jamiyatning ijtimoiي tuzilishi, ya'ni muayyan ijtimoiي qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va toifalarning mavjudligi mehnat taqsimoti, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik munosabatlari, jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklardan oladigan

ulushiga bog‘liq. Bular jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoiي guruhlarga ajralishining negizidir. Jamiyat hayoti iqtisodiy, ijtimoiي, siyosiy, madaniy-ma’naviy sohalarga ajraladi. Iqtisodiy soha moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol qilishni o‘z ichiga oladi. Unda mamlakatning xo‘jalik hayoti tashkil etiladi, uning turli tarmoqlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladi. Bu jamiyat taraqqiyoti uchun eng asosiy sohadir. Ijtimoiy soha jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini uyg‘unlashtiradi. Siyosiy soha turli ijtimoiy toifa va guruhlar, milliy birliklar, siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashkilotlarning o‘z siyosiy faoliyatini amalga oshiruvchi makondir. Ularning faoliyati jamiyatdagi o‘rnatilgan siyosiy munosabatlar asosida o‘z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi. Ma’naviy sohada kishilar turli ma’naviy qadriyatlarni yaratadi, tarqatadi va jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o‘zlashtiriladi. Bu sohaga adabiyot, san’at, musiqa asarlari bilan bir qatorda kishilarning bilim saviyasi, fan, axloqiy me’yor va umuman olganda, jamiyat hayotining ma’naviy mazmunini tashkil qiluvchi narsalar kiradi.

Hozir O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqlol mafkurasi asosida tarbiyalash, o‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosi, qadriyatlari, an’analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir. O‘zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat barpo etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti asarlarida jamiyat rivojlanishi to’g’risida yangi nazariy va konseptual yondashuvning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. Jamiyat rivojlanishi to’g’risidagi yangicha ilmiy nazariy qarashlar va g’oyalar O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti to’la asarlar jildida, shuningdek uning “O‘zbekiston mustaqillikka

erishish ostonasida”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarida ilmiy asoslab berilganligini ko’ramiz. Jamiyat rivojlanishi to’g’risidagi yangi nazariy g’oyalar jamiyat rivojlanishi bo’yicha mavjud bo’lgan an’anaviy qarashlardan tubdan farq qiladi. Jamiyat rivojlanishi to’g’risidagi qarashlarning yangicha ilmiy asoslarga qo’yishni taqozo etgan shart-sharoit va omillarni mustaqillik va mustaqil taraqqiyot yo’lini tanlash, davr va zamon o’zgarishlari va yangicha talablaridan kelib chiqqan holda to’g’ri tushunish va talqin etish mumkin.

Demak, mustaqillik va jamiyat taraqqiyoti to’g’risidagi qarashlarni o’zgartirish zarurligi O’zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo’lidan rivojlanishi o’ziga xos va mos taraqqiyot modelini ishlab chiqish bilan bog’liq. Mustaqil taraqqiyot mamlakatni o’z negizida rivojlanishini ta’minalash uchun tegishli shart-sharoit va omillarni yaratib beradi.

O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti asarlarida jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari, shart-sharoitlari va omillariga amal qilib kelingan turli xil qarash va yondoshuvlarga nisbatan yangicha konseptual g’oyalar asoslab berildi va ishlab chiqilganligini quyidagi g’oyalar orqali ko’rish mumkin:

“Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o’zi yo’l qo’ymaydi” – deb ta’kidlaydi I.Karimov². Demak jamiyat rivojlanishi to’g’risidagi qarashlarni o’zgartirish, jamiyat rivojlanishi bilan bog’liq kommunistik g’oya aqidalardan voz kechish, zamon o’zgarishlarini hisobga olishga alohida e’tibor qaratiladi va mavjud an’anaviy qarashlarni o’zgaritirish bilan bog’liq g’oyalar va qarashlar o’rtaga tashlanadi.

Natijada jamiyat rivojlanishi to’g’risida mavjud bo’lgan an’anaviy qarash o’zgardi. Uni quyidagi yo’nalishlarda ko’rish mumkin:

² KarimovI.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O’zbekiston, - 2011.

• jamiyat, jamiyat rivojlanishi tushunchalariga yangicha qarash amalga oshirila boshlandi. U materialistik dialektika qolipidan, prinsiplaridan xalos etildi;

• jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy ishlab chiqarishga bog'liq degan g'oyaga yangicha qarashga asoslanildi. Formatsion qarashdan voz kechildi. Jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsion yondashuv amal qila boshladi;

• jamiyat taraqqiyotiga sinfiy qarashdan voz kechildi. Jamiyat rivojlanishida inson omiliga – oliv qadriyat sifatida qarala boshlandi;

• jamiyat rivojlanishini inson va ongi tafakkuriga bog'liq ekanligiga alohida e'tibor berila boshlandi. “Ong va tafakkur o'zgarmasa ijtimoiy hayot o'zgarmaydi” (I.Karimov) degan g'oya ilgari surildi va ilmiy asoslab berildi;

• jamiyat iqtisodiy negizi o'zgartirildi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkning xilma-xilligiga o'tildi;

• jamiyat rivojlanishi “ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi” bilan bog'liq qonuniyatga amal qila boshladi³.

Bu yangicha g'oya va qarashlardagi o'zgarishlarni oldingi qarashlardan tubdan farq qilishini alohida ta'kidlash zarur. Chunki jamiyat rivojlanishiga formatsion qarash jamiyat rivojlanishi qonunlarini ilmiy asosda xolisona o'rganish imkoniyatini bermaydi. Ya'ni jamiyat rivojlanishi faqat moddiy ishlab chiqarishga bog'lab tahlil etiladi. Bu oxir oqibatda jamiyat taraqqiyotini “materialistik” yoki “moddiylik” nuqtai nazaridan tushunishga olib keldi. Ma'naviy omilning roli esa hisobga olinmadni. Jamiyat rivojlanishiga formatsion qarash g'oyasi uni bir chiziqli tushunishga asoslanadi. Taraqqiyot modellining xilma-xilligiga asoslanadi. I.Karimov asarlarida jamiyat rivojlanishini formatsion qarashning cheklanganligi “bundan keyin kapitalizm ham yo'q sotsializm ham yo'q” degan fikrlari orqali uning mohiyatini aniq tasavvur etish mumkin. Shuningdek jamiyat rivojlanishini inson omiliga ham bog'liqligi bu asosan inson ongi va tafakkuridagi o'zgarishlar orqali ilmiy

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008, 173-b

asoslab berilganki, jamiyat rivojlanishi qonunlarini to'g'ri tushunishga ilmiy-nazariy jihatdan yordam beradi.

Jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi yangicha ilmiy-nazariy g'oyalarning o'zgarishi ijtimoiy hayot sohalarini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq. Bu I.Karimov asarlarida O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishi hamda "o'zimizga xos va mos taraqqiyot yo'lidan boramiz" va "o'z kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz" g'oya va maqsadlari orqali aniq ifodasini topadi. Jamiyat rivojlanishi buning uchun muayyan o'tish davri va taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tish zarurligi, mohiyati asoslab beriladi. Jamiyat ijtimoiy hayoti sohalaridagi tub o'zgarishlar deganda uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyaviy asoslarini tubdan o'zgartirish va yangicha asosga (negizga) o'tkazilishini anglatadi.

Natijada mustaqillik tufayli jamiyat ijtimoiy hayoti sohalari tubdan o'zgardi. Uning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'ramiz. Unga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas"⁴.



⁴O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

Siyosiy sohadagi tub o'zgarishlar:

- Mustabid sovet davri tizimidan voz kechildi;
- Prezidentlik instituti joriy etildi;
- Siyosiy institutlar xilma-xilligiga aoslangan demokratik siyosiy tizimga o'tildi. Bunda davlat bosh islohotchi sifatida e'tirof etildi.

G'oyaviy-mafkuraviy sohadagi tub o'zgarishlar:

- Kommunistik g'oya aqidalaridan voz kechildi. Milliy g'oya: asosiy tushunchalari va tamoyillari ishlab chiqildi;
- Milliy g'oya negizlariga tayangan holda O'zbekiston jamiyatni rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari asoslab berildi;
- Jamiyat rivojlanishida milliy madaniy meros hamda umuminsoniy qadriyatlar, demokratik prinsiplarga amal qilina boshlandi;

Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlar:

- Bozor iqtisodiyotiga aoslangan mulkning xilma-xilligiga o'tildi;
- Xususiy mulk tan olindi;
- Barcha mulk shakllari teng ekanligi e'tirof etildi, uning huquqiy asoslari yaratildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, I.Karimov asarlarida jamiyat rivojlanishi bosqichlari quyidagicha asoslab berilgan.

1. 1989-1991 yillar - Mustaqillik ostonasi,
2. 1991-2000 yillar - O'tish davri bosqichi ,
3. 2000-2007 yillar – Modernizatsiyalash,
4. 2007 yildan hozirgacha - Mamlakatda demokrtik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bosqichi.

Bu bosqichlar jamiyat rivojlanishida o'ziga xos ma'no-mazmunga ega va mustaqil taraqqiyot yo'lida amalga oshrilgan muhim o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Masalan, 1989-1991 yillarda, ya'ni O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasidagi o'zgarishlarni quyidagilarda ko'rish mumkin:

- 1989 yil 21 oktyabr o’zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berildi;
- 1990 yil 24 mart Prezidentlik lavozimi joriy etildi;
- Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi;
- 1991 yil 31 avgust O’zbekistonning davlat mustaqilligi e’lon qilindi;
- Navro’z – umumxalq bayrami sifatida e’lon qilindi va b.

Jamiyat taraqqiyotidagi tub o’zgarishlarni amalga oshirish, rivojlanish qonuniyati nuqtai nazaridan yondoshganda muayyan o’tish davrini zarurligini taqozo etadi. Bunda 1989-1991 va 1991-2000 yillarni hisobga olish zarur

“O’tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog’liq birinchi galdegisi islohot va o’zgarishlarni o’z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar mamlakatimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o’tish davri, tom ma’noda tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan davr bo’ldi”.

O’tish davrida avvalambor

► O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi;

► ijro hokimiyatining samarali tizimi va tuzilmalarini yaratildi;

► sud hokimiyati tizimi shakllantirildi;

► milliy xavfsizlik organlari shakllantirildi;

► qishloq ho’jaligi tubdan isloh qilindi, g’alla mustaqilligiga erishildi;


► bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi;

► bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan moliya va bank tizimi shakllantirilganligi va boshqalar bilan asoslanadi. O’zbekiston jamiyatni o’tish davri vazifalarini amalga oshirib, jamiyat ijtimoiy hayoti sohalarida o’z negizida rivojlana boshlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida taraqqiyot modellarining xilma-hilligi, taraqqiyotning “O’zbek modeli” asoslab berilgan. Bunda “taraqqiyot” tushunchasining ma’no-mazmuniga alohida e’tibor berish lozim. Taraqqiyot bu- takrorlanmas, ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan hamda

moddiy va ma'naviy hayot sohalarining huquqiy o'zgarishi, yangi sifatlarga yaratishga olib keluvchi falsafiy kategoriyadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida taraqqiyotning yakka-yu yagona modeli yo'q degan g'oya ilgari suriladi. Demokratiya modellarining xilma-xilligi asoslab beriladi. Taraqqiyot modellari xilma-xilligini e'tirof etish muhim demokratik prinsip hisoblanadi. Aksincha uni e'tirof etmaslik, demokratiyaning mohiyatiga zid hodisadir. Chunki har qanday umuminsoniy hodisa milliy negizda rivojlanadi va amalga oshadi. Bu har bir xalqning milliy ma'naviy merosi xususiyatlari, tafakkur va turmush tarzi bilan bevosita bog'liqdir.





Taraqqiyot modelining xilma-xilligida “model” tushunchasi taraqqiyot, andoza, rivojlanish ma’nosini anglatadi. Bugungi dunyo taraqqiyotida jamiyat rivojlanishi bilan bog’liq turli xil modellar e’tirof etilgan:

- ▶ “**Evropa modeli**”
- ▶ “**Xitoy modeli**”
- ▶ “**Yaponiya modeli**”
- ▶ “**Shvetsiya modeli**”
- ▶ “**Amerika modeli**” va hokazolarda ko’rish mumkin.

“**O’zbek modeli**” esa ana shu jamiyat rivojlanishining o’ziga xos ko’rinishidir va rivojlanishning o’ziga xos yo’lidir. Bu I.A.Karimovning “O’zbekiston bozor iqtisodiyotiga o’tishning o’ziga xos yo’li” asarida atroflicha asoslab berilgan. “**O’zbek modeli**” quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- 1. Iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi va uning siyosatdan ustunligi;**
- 2. Davlat – bosh islohotchi;**
- 3. Qonun ustuvorligi;**
- 4. Kuchli ijtimoiy siyosat;**

5. Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

O’zbekiston jamiyatining rivojlanishida erishilayotgan yutuqlarni “O’zbek modeli”da belgilab berilgan tamoyillarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Mustaqillik tufayli jamiyat iqtisodiy negizi yagona kommunistik g’oyaning ta’siridan xalos etilganligi iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligini amalda ta’minlanayotganligi iqtisodiy hayotdagi o’zgarishlarni muhim omili bo’lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik tufayli davlatga qarash tubdan o’zgardi. I.Karimov asarlarida davlat bosh islohotchi ekanligi alohida ta’kidlanadi. Natijada sobiq sovet davrida amal qilgan “davlat-jamiyat-inson” tizimi o’rnida “inson-jamiyat-davlat” tizimiga o’tilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu orqali inson manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustuvorligi aniq belgilab qo’yildi. Davlatning hukmronligiga barham berildi. Davlat bosh islohotchi sifatida jamiyat rivojlanishi bilan bog’liq bo’lgan uning qonuniy asoslarini yaratishda hamda qabul qilingan qonunlarning ijrosini nazorat etishda bosh islohotchi rolini o’ynamoqda. “O’zbek modeli”da qonun ustuvorligi muhim tamoyili hisoblanadi, unga ko’ra qonun oldida barchaning barobar ekanligi o’zining aniq ifodasini topgan. O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda “kuchli ijtimoiy siyosat” tamoyiliga amal qilib kelinmoqda. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo’lgan qatlamlari davlat tomonidan himoya qilinmoqda va ijtioiy qo’llab-quvvatlanmoqda. “O’zbek modeli”da islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyili jamiyatning tadrijiy rivojlanishini ta’minalashga xizmat qiladi. U turli inqilobiy o’zgarishlarni amalga oshirishni e’tirof etmaydi. Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarda uning natijalarini ko’rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlarida jamiyat rivojlanishi to’g’risidagi g’oyalar va qarashlar yangicha mauzmun-mohiyatga ega bo’lgan konseptual g’oyalar asoslab berildi. U an’anaviy qarash va yondoshuvlardan mohiyati jihatidan farq qiladi;

Ikkinchidan, jamiyat rivojlanishi ob'ektiv qonuniyatlarga ega. Uni ifodalovchi omillarni aniqlash jamiyat rivojlanishini to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. Rivojlanish jarayonlarida biron-bir omilni mutloqlashtirmaslikka, uni ayrim siyosiy va yagona mafkura, maqsadlardan xolis bo'lishga yordam beradi;

Uchinchidan, jamiyat rivojlanishi muayyan taraqqiyot bosqichlarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston jamiyatni rivojlanishida bu tarqqiyot bosqichlari ijtimoiy hayot sohalarida turgan turli vazifalarni amalga oshirish bilan bir-biridan farq qiladi;

To'rtinchidan, jamiyat rivojlanishi turli xil rivojlanish modellariga ega bo'ladi, bu demokratik prinsiplarga to'la mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha **HARAKATLAR STRATEGIYASI** qabul qilindi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e'lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o'tdi.

Uning birinchi ustuvor yo'nalishi "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlanib unda quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

- demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;
- davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

- qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo’naltirgan holda tubdan oshirish masalalari.

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017 yil — Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e'lon qilindi.

1.2. Demokratik huquqiy davlatning o'ziga xos belgilari va xususiyatlari

Demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish vazifalarini o'z ichiga oladi hamda uning muhim sharti hisoblanadi. YA'ni biz demokratik jamiyatni huquqiy davlatsiz va fuqarolik jamiyatni institutlarisiz tasavvur eta olmaymiz. Shuning uchun ham I.A.Karimov huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini demokratik jamiyatning ikki qanoti yoki uning muhim sharti ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- **Fuqarolik jamiyat;**
- **Huquqning ustuvorligi prinsipi;**
- **Tenglik prinsipi;**
- **Suverenlik prinsipi;**
- **Davlat xokimiyatining bo'linish prinsipi;**
- **Xokimiyatni tashkil etishda saylov va rotatsiyaga asoslanish.**

Shu belgilari bilan u huquqiy bo'limgan davlatdan tubdan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarining "Demokratik institutlarini va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish" nomli bobida uning mohiyati va maqsad va vazifalarini aniq ko'rsatib beradi.

Fuqarolik jamiyat – fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini anglashi hamda fuqarolik jamiyatni institutlari orqali davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishidir.

Fuqarolik jamiyatiga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha ta'rif beradi: "Fuqarolik jamiyat - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq

va erkinliklari to’la darajada ro’yobga chiqishiga ko’maklashadi. Ayni vaqtida boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo’l qo’yilmaydi. Ya’ni erkinlik va qonunga bo’ysunish bir vaqtning o’zida amal qiladi, bir-birini to’ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so’zsiz rioya qilishlari shart” [6].

Demokratiyaning sifati partiyalarning paydo bo’lishi, ularning soni, dasturiy yo’l-yo’riqlarining o’ziga xosligi va hokazolar esa ijtimoiy manfaatlar yig’indisi va jamlanishi orqali tabiiy yo’l bilan belgilanmasligi lozimligiga e’tibor qaratiladi. Unga ko’ra siyosiy partiyalar mavjud bo’lishining asosiy va birdan-bir prinsipi davlatning konstitutsiyaviy me’yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etishdan iborat bo’lmog’i lozim.

Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorligi yo’lida jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalarining o’rni muhim ahamiyatga ega. Respublikadagi yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar ommaviy axborot vositalari oldiga mutlaqo yangi, shu paytgacha notanish bo’lgan vazifalarni qo’ymoqda.

I.A.Karimov tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining asoslanishi, uning yo’nalishlari, maqsad va vazifalari.

I.Karimov insoniyat ming yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarni to’la-to’kis o’zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim sharti ekanligini ta’kidlab, “demokratiya” tushunchasini quyidagicha yoritiladi. Umumiylar tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yo’lida ko’pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi. Batafsil tahlil qilinganda esa demokratiya - xalqning o’z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o’zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo’sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o’z-o’zini boshqarish shakli ham ekanligi ayon bo’ladi.

Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi;
- 2) hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi;
- 3) oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir.

“Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo’lmas ekan, - deb ta’kidlaynadi mazkur asarda, - demokratiya haqidagi hamma gap-so’zlar yo xalqqa hushomad qilish, yoki oddiy siyosiy o’yin bo’lib qolaveradi. Bunday siljishlar esa bir kunda bo’ladigan ish emas” [6].

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Ikkinci chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to’qqizinchisi sessiyasidagi so’zlagan ma’ruzasida O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlarini ko’rsatib beradi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash;
2. Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash;
3. Erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish;
4. Inson huquqlari va erkinliklarini, so’z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoraliqni, jamiyatda o’tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta’minlaydigan demokratik tamoyillarni amaliy hayotda joriy qilish;
5. Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o’rni va ahamiyatini keskin kuchaytirish;
6. Sud-huquq sohasini isloh qilishni izchil davom ettirish;
7. Demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish [7].

I.Karimov eng muhim ustuvor maqsad – mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga to’xtalar ekan, mustaqillik eng avvalo o’z taqdirimizga o’zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o’z qo’limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo’lida foydalanish, muqaddas ma’naviy qadriyatlar va milliy an’analarga tayangan holda va tarzda yashash, ana shu beba ho merosni asrab-avaylab, uni kelgusi avlodlarga yanada boyitgan holda yetkazish ekanligini ta’kidlaydi.

Mustaqil taraqqiyot yo’lini aynan mana shu ma’no-mazmunda anglab, uni mamlakatni siyosiy jihatdan rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, jamiyatni ma’naviy yangilash borasida olib borayotgan barcha islohotlarimizning mezoni sifatida baholaydi.

Ikkinchi ustuvor yo’nalish birinchi ustuvor yo’nalishi bilan uzviy bog’liq bo’lib, bu - mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashdan iborat. Bu mezonlar har doim rivojlanish va taraqqiyotning asosiy sharti bo’lib kelgan. Bunda ekstremizm va ashaddiy aqidaparastlikning har qanday ko’rinishlariga, xalqaro terrorchilik va narkobiznesga qarshi izchil kurashish yo’lida barcha imkoniyatlarimizni va kuch-qudratimizni safarbar qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanuvchi vazifalardan biridir.

Buboradagi ishlarning asosiy ma’no-mauzmuni mamlakatimizda millatlar va dinlararo totuvlik, fuqarolar hamjihatligini yanada mustahkamlash, O’zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha insonlarning millati va dini, irqiva jinsiga qaramasdan, ularning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash tashkil qiladi.

Shu bilan birga, I.Karimov o’z ma’ruzasida ichki xavfsizlik muammolariga ham to’xtalib, o’tmishdan salbiy meros bo’lib qolgan nuqson va illatlardan xalos bo’lish, korrupsiya, millatchilik, mahalliychilik, urug’-aymoqchilik ko’rinishlariga qarshi kurashish va, albatta, jamiyatni

erkinlashtirish yo'lidagi islohotlarni izchil davom ettirish va chuqurlashtirish zarurligini ta'kidlab o'tadi.

Uchinchi ustuvor yo'nalish bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bilan bog'liq.

Bu yo'nalish yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallaydigan, fuqarolarning muhim daromad manbai va mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosi bo'lgan xususiy sektorning mavqeini yanada oshirish, kichik va o'rta biznes hamda tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Bu boradagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy faoliyat hamda valyuta bozorini erkinlashtirish;
- milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin almashuvini ta'minlash;
- milliy valyutamiz - so'mning barqarorligi va xarid quvvatini har tomonlama mustahkamlashdan iborat [7].

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, eksport rivoji, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashning muhim sharti bo'lgan xorijiy investitsiyalar, avvalambor, xususiy sarmoyalarni jalb etish, buning uchun tegishli investitsion muhit va investorlar uchun kafolatlar yaratish, tashqi va ichki investitsiyalarni butun iqtisodiyotimizni yangilashga, oltin-valyuta zaxiralarimizning barqaror o'sishiga xizmat qiladigan yetakchi tarmoqlarga yo'naltirish katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi to'rtinchi ustuvor yo'nalish - bu inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoraliqni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir.

Axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari - matbuot, radio-televide niye faoliyatini erkinlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish jarayonining uzviy tarkibiy qismiga aylanishi zarur. “Qisqa qilib aytganda, - deb ta’kidlaydi I.Karimov, -ommaviy axborot vositalari tom ma’noda "to’rtinchi hokimiyat" darajasiga ko’tarilmog’i lozim” [7].

O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda jamiyatda oshkorlik va ochiqlikni ta’minalash masalasi jamoatchilik fikrini o’rganish usul-uslublarining qay darajada rivojlangani bilan bevosita bog’liqligi, jamoatchilik fikri - fuqarolik jamiyatining holatini o’zida aniq aks ettiradigan bamisol bir ko’zgu ekanligini ta’kidlar ekan I.Karimov, jamoatchilik fikrini o’rganish ham, uni shakllantirish ham yaxshi yo’lga qo’yilmaganini, bunday yondashuv siyosiy hayotimizning doimiy belgisiga aylanib ulgurmaganı taassuf bilan qayd etadi [7].

Jamiyatini yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish avvalo aholi siyosiy faolligining o’sishi, uning siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog’li faol ishtirok etishi bilan uzviy bog’liq.

Bu masalani yechishda birinchi galda mamlakatimizdagı mavjud siyosiy partiya va harakatlar o’z faoliyatini jonlantirishi, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda ko’ppartiyaviylik, demokratik parlamentarizm tizimi, ijobiy siyosiy raqobat muhitini qaror toptirishga va jamiyatimiz siyosiy maydonida tan olingan oppozitsiya paydo bo’lishiga hissa qo’shishi lozim.

Beshinchi ustuvor yo’nalish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo’lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o’rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo’nalishlariga to’xtalar ekan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo’lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va

jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. "Boshqacha qilib aytganda, - deydi I.Karimov, bu - "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir" [7].

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'naliishlari haqida gapirganda, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borish lozimligini ta'kidlaydi.

Buning uchun avvalambor davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim. SHu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: bunday vaziyatda davlat tizimining roli nimadan iborat bo'ladi?

Ma'lumki, qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Biz, - deydi I.Karimov, - "Adolat - qonun ustuvorligida" degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashashimiz zarur. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q" [7].

Ma'lumki, davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirilsa, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirilsa, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. SHuning uchun ham biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqdamiz.

Hayotimizni erkinlashtirish yo'naliishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir.

Sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha boshlangan ishlarni izchil davom ettirish oltinchi ustuvor yo'nalishdir. Bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini amalda ta'minlashdir. Sudlar tom ma'noda mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. "Qayerda sud mustaqil bo'lmas ekan, - deydi I.Karimov, - shu yerda qonun talablari vaadolat buzilishi muqarrar" [7].

Qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

SHuning uchun ham bugungi kunda yuridik-huquqiy normalarni erkinlashtirish va yangilash, sud organlari faoliyatining tashkiliy shakllarini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini har tomonlama chiqur o'r ganib chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Sud hokimiysi va ommaviy axborot vositalarining o'zaro munosabati masalasi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish dolzarb masaladir. Chunki aynan ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikriga, fuqarolarning huquqiy ongiga ta'sir o'tkazish hamda aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati cheksiz.

Bu vazifalarni amalda ta'minlashda da'vo arizalari va shikoyatlarni qabul qilish hamda ularni ko'rib chiqish borasidagi dastlabki jarayonlarni yanada soddallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Ettinchi ustuvor vazifa - bu barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir.

Bu - demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish demakdir.

Ijtimoiy infratuzilmani, ta'lim va sog'lioni saqlash sohalarini yanada rivojlantirish, nafaqa bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, aholini

ekologik va boshqa xavf-xatarlardan muhofaza etish, qisqa qilib aytganda, odamlarimizning sotsial soha bo'yicha talab va e'tirozlarini qondirish masalalariga davlatning doimiy e'tiborini har tomonlama kuchaytirish lozim. "Yurtimizdagи har qaysi viloyat, shahar va qishloqlarimizda shu sohaga atroficha e'tibor berar ekanmiz - hech shubhasiz, aholimizning, xalqimizning bunga javoban minnatdorligiga va siyosatimizni qo'llab-quvvatlashiga erishgan bo'lamiz, -deb ta'kidlaydi I.Karimov".

Fuqarolik jamiyat asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzlucksiz ish olib borishning ahamiyati haqida to'xtalar ekan, I.Karimov quyidagilarga e'tibor qaratadi: "**Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak**" [7].

I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va 2010 yilning 12 noyabrida *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senating qo'shma majlisidagiie'lon qilingan* «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»sida yangi jamiyat qurishga doir o'z konseptual nazariy qarashlarida bu sohadagi milliy merosga muhim ahamiyat beriladi. Unda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab olinadi:

- Davlat hokimiyyati va boshqaruvini demokratlashtirish
- Sud-huquq tizmini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash
- O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiliginini rivojlantirish
- Fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirish va rivojlantirish
- Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish [5].

Konsepsiya da ta'kidlangan, demokratlashtirish jarayonida dolzarb xarakterga ega bo'lган sud-huquq tizimini isloh etish mamlakatni demokratik yangilanishning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'naliш sifatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini himoya qilish, ya'ni huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va liberallashtirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini bergani, prokurorlik va advokatura institutlarini takomillashishi, ayniqsa, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash yo'naliшhida «Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida» qonun qabul qilish zaruriyati masalasining qo'yilishi, avvalo, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengaytirish, boshqaruv organlari qabul qilayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas'uliyatini oshirish hamda davlat hokimiysi organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qabul qilish tartiblarini belgilash, ijro hokimiysi organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni, davlat ichki va tashqi siyosatining ochiqligi hamda oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqeа va hodisalar xususida fikrlar ximla-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda ta'minlanishi masalalarining alohida ta'kidlab o'tilishi boshqaruvni demokratlashtirishning yangi xususiyatlari tarkib topishiga xizmat qiladi.

Insoniyat taraqqiyotida davlat hokimiysi va boshqaruvini demokratlashtirish masalasi, uni amalga oshirishning turli xil shakllari bilan bog'liq holda har xil yechim topib kelgan.

Davlat jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar tufayli shakllangan siyosiy institutdir. U jamiyatda turli insonlar o'rta sidagi munosabatlarni tartibga solishda, ularni farovon, baxtli hayot

kechirishlarini ta'minlashda muhim o'rinni tutgan. Ammo bu osonlikcha amalga oshmagan. Jamiyat tarixida davlat manfaati inson manfaatiga xizmat qilgan xolatlar bilan birga, aksincha, "davlat hukmronligi", boshqaruvda "ma'muriy buyruqbozlik" amal qilgan davrlar ham ko'p bo'lgan, mustabid Sovet davri bunga tipik misoldir. "Hokimiyat" tushunchasi eng universal bo'lib, "davlat hokimiyati", "siyosiy hokimiyat" uning o'ziga xos ko'rinishidir.

O'zbekistonda, mustaqillik tufayli, bu tushunchalar yangicha ma'nomazmun kasb eta boshladi. Mamlakatimizda davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga ustuvor ahamiyat berildi. "Inson – jamiyat – davlat" tizimi huquqiy asosda yechim topdi. "Xalq davlat hokimiyatning birdan-bir manbaidir" [1] (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 7-modda) degan norma konstitutsiyada belgilab qo'yildi. Demak xalqning xohish-irodasi, maqsad va manfaatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvini amalga oshirishda belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Bugun bu – o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy makondir.

Mamlakatimizda, davlat hokimiyatini demokratlashtirishda, "bosqichma-bosqichlik" tamoyiliga tayangan holda amalga oshirish hayotiyligi, buning uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni, shuningdek omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilayotganligi, davlatni bosh islohotchi sifatida mamlakatda barqaror, siyosiy hayotni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

"Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasining qabul qilinib, asoslanganligi uning o'ziga xos siyosiy mantig'idir. "Buning tasdig'ini, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov, - mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat'iy va izchil tus olgani, odamlarimiz o'zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongu tafakkuri yuksalib, yon-atrofda bo'layotgan barcha voqealarni dahldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko'rish, anglash qiyin emas" [7].

“Davlat hokimiyatini va boshqaruvini demokratlashtirish” uning yo’nalishlaridan biridir. Bu pirovard maqsadni – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilganligini anglatadi. Natijada fuqarolar o’zaro huquq va erkinliklarini, manfaatlarini anglab, tegishli fuqarolik institatlari orqali davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etib bormoqdalar. Fuqarolik mas’uliyati va madaniyati ortmoqda. Bu “demokratik jamiyatning – huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati” uyg’unligini, amalda ta’minlashga xizmat qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 56-moddasida quyidagicha belgilab qo’yilgan: “O’zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro’yhatdan o’tkaziladigan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatları, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi” [1].

Xulosa qilib aytganda, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish: mustaqillik; inson erkinligi va manfaatlarining ustuvorligi; davlatni bosh islohotchi ekanligi; davlat hokimiyatini bo’linish prinsipiga amal qilishi; qonun ustuvorligi; huquqiy davlat; fuqarolik jamiyati intitutining rivojlanishi; fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshishi; fuqarolarning siyosiy ong va madaniyatining yuksalishi; siyosiy plyuralizm; demokratik saylov tizimi; parlament institutining rivojlanishi va boshqa omillar bilan bog’liq.

II. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

2.1. *Qonun ustuvorligini ta'minlashda demokratik islohatlarning o'rni*

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri jamiyat a'zolarining qonun oldida tengligining, Konstitutsiya va qonunlarning tengligining ta'minlanganligidir. Shuningdek, Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmg'i lozim.

“Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi”.⁵ Huquqiy davlatning muhim belgisi – jamiyat hayotida chinakam qonun ustuvorligini ta'minlash har qanday davlat uchun, xususan huquqiy davlat qurish yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun ham juda muhimdir.

Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bob, 15 va 16-moddalarida belgilab qo'yilgan. Konstitutsianing 15-moddasiga muvofiq “O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar” deyilgan.

Qonun ustuvorligi tushunchasining mohiyati Prezidentimiz Islom Karimovning bir qator asarlarida chuqr tahlil qilingan.

⁵ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. –T.: O'zbekiston, 2002, 28-b.

“Qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat’iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo’jalik yurituvchi va ijtimoiy siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo’ysunish majburiyatidan xalos bo’lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq va normalarni buzganligi uchun javobgar bo’ladi”⁶, deb ta’riflaydi, I. Karimov.

Qonun ustuvorligi demokratik jamiyat barpo etishning asosi bo’lib hisoblanadi. Shu bilan birga adolat mezoni hisoblanadi. Chunki, qonun ustuvorligi ta’mirlansagina adolat qaror topadi, insonlar millati, tili, urfodati, an’anasi, qadriyatlari, diniy e’tiqodi, jinsi, ijtimoiy ahvoli kabilarda tenglikka erishadilar. U mamlakat iqtisodiy, ijtimoiysiyoziy va ma’naviy hayotida barqarorlik ta’mirlanishing asosi hisoblanadi. Qonun oyoq osti qilingan mamlakatda talontorojlik, tengsizlik, adolatsizlik, zo’ravonlik va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham qonun ustuvorligi umuminsoniy qadriyat darajasiga ko’tarilgan. Qonun bilan yashashni millat vakillarining dunyoqarashiga aylanishiga erishish, milliy rivojlanishning muhim yo’nalishini tashkil qiladi.

Ammo u oson ish emas. Chunki, demokratik jamiyatga o’tish jarayonida iqtisodiy sohada vujudga keladigan muammolar oddiy insonlardan tortib, to mansabdor shaxslargacha qonunni chetlab o’z iqtisodiy, ijtimoiysiyoziy va ma’naviyma’rifiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlar qilish jarayonini vujudga keltiradi. Bu salbiy jarayonlarning oldini olmasa juda noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qonunning ustuvorligi har qanday davlat va jamiyat hayotining muqaddas tamoyillaridan biridir. Qonunga og’ishmay itoat etilgan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va yanada mustahkamlanadi. Qolaversa, barcha

⁶ Karimov I.A. O’zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: O’zbekiston, 1996, 321-b.

demokratik institutlar, inson huquqi va erkinliklari qonun vositasi bilan joriy etiladi. Qonunda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari o’zining ifodasini topadi. Qonunga itoatkorlik – bu yuksak madaniyatllilik, ma’naviyatlilik, ma’rifatlilik belgisidir. Qonunga itoatkorlikni insonning unga ko’rko’rona bo’ysunishi ma’nosida tushunmaslik lozim. Qonunning maqsad va vazifalarini, ma’nosiyu, insonparvarlik ahamiyatini ongli ravishda tushunib olish, unga ixtiyoriy rioya qilishga va uning asosida faoliyat yuritishga yordam beradi.

Qonunlarga qat’iy rioya etilishi jinoyatchilikning oldini olishning, qonun buzilishiga yo’l qo’ymaslikning zarur shartlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Qonunning kuchi, obro’si, ta’siri, amaliy ahamiyati hayotda uning halol, haqiqiy, odilona tatbiq etilishidadir. Agar qonun ijrochilar burchlari va mas’uliyatlariga xolisona odilona yondashib, to’g’ri yo’ldan toymay Vatan, davlat manfaati va taqdirini o’zлari uchun oliy maqsad deb hisoblab qonunlarni turmushga adolatli qo’llasalar, bundan davlat va jamiyat ham, xalq ham naf ko’radi.

“Qonun – ijrosi bilan kuchli” – degan iboraga urg’u beradigan bo’lsak, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida qonunlarni ijo etishda halollik va adolat asosida ish yuritish mutasaddilar uchun asosiy maqsad, jamiyat, xalq va Vatan oldidagi buyuk insoniy burch, yuksak mas’uliyat bo’lmog’i lozim.

Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyatda qonunning hukmronligini qaror toptirishni taqozo etadi. CHinakam huquqiy davlat barpo etmoq uchun mamlakatda adolatli, insonparvar demokratik qonunlar tantana qilmog’i lozim. Qonunning oliyligi davlat va jamiyat hayotining muqaddas prinsiplaridan biridir. Ijtimoiy siyosiy turmushda qonun muqaddas sanalib, uning yuksak nufuzga ega bo’lishining boisi shuki, unda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari o’zining ifodasini topadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, mamlakatda bozor munosabatlariga o’tishning O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan e’lon

qilingan besh prinsipi orasida qonunning hamma narsadan ustun bo'lishi va qonunga itoatkorlik prinsipi alohida o'rin tutadi. "Chinakam demokratik jamiyatda Prezident ham, oddiy fuqaro ham qonunga rioya etadi. Boshqa iloji yo'q".⁷

Demokratik jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyilining ahamiyati juda muhimdir. Chunki I.A. Karimov aytganlaridek, «huquqiy davlatning quroli ham, ko'zi ham, o'zi ham, qalqoni ham qonundir».⁸

Demokratik jamiyatda qonun ustuvorligi avvalambor demokratiyaga xos bo'lган xususiyatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, qonun belgilagan har bir narsa majburiy yoki ta'qiqlov xarakteriga ega va ushbu qoida jamiyatda istiqomat qiluvchi barcha shaxslarga taalluqlidir. Ya'ni bu yerdan shunday tushuncha vujudga keladi, barcha qonun oldida barobardir.

Qonun ustuvorligining ahamiyati haqida so'z yuritar ekanmiz avvalambor xalqning manfaatlari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlар, davlat ishini tashkil etish va shunga o'xhash boshqa masalalarda muhim ahamiyatga ega.

Qonun ustuvorligiga erishish uchun avvalambor ularni qabul qilish jarayonida puxta va mukammal qilib, jamiyatda kelajakda uzoq vaqt o'z foydasini bera oladigan darajada ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari qonunlarni qabul qilish jarayonida shuni e'tiborga olish lozimki, ya'ni jamiyat, xalq ushbu Qonunga ehtiyoj sezayaptimi yoki yo'qmi. Aynan shu masala ham qabul qilinadigan qonunning hayotda qay darajada jamiyatga naf keltirishi keltirmasligini belgilab beradi.

Qonun ustuvor bo'lган jamiyatda noroziliklar ham bo'lmaydi, chunki barcha soha vakillari qonun asosida faoliyat yuritar ekan norozilik va tushunmovchilikning o'zi bo'lmaydi. Qonunlarning ustuvorligi jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun shu jumladan, davlat xizmatida ishlovchi shaxslar uchun,

⁷ Karimov I.A. "Yangi uy qurmey turib, eskisini buzmang". –T.: O'zbekiston, 1993, 22-b.

⁸ X. Boboyev, Z. G'ofurov, Z. Islomov. "Milliy istiklol mafkurasi va taraqqiyot". –T.: Yangi asr avlod, 2001. 115-b.

shuningdek jamiyatdagi barcha sohalarga taalluqli bo’lganligi uning yanada mukammal tus olishigi olib keladi. Qonun ustuvorligi haqida so’z yuritganda uning ustuvorligini ta’minlovchi davlat organlari haqida ham unutmasligimiz lozim. Chunki qonun qabul qilinishining o’zi bu uning jamiyatda o’zo’zidan ustuvor xususiyatga ega degani emas, buning uchun davlat organlarining bu borada hizmatlari va mehnatlari talab etiladi.

Qolaversa, qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta’minlashga mas’ul bo’lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga “etalon” bo’lishlari lozim bo’ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xattiharakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo’lishiga olib keladi. SHu ma’noda ham qonun ustuvorligini ta’minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas’ul bo’lganlar ko’proq yetakchilik qilishlari talab etiladi. Qonunlarning har qanday shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoxud ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo’lishini real ta’minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo’ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi.

Qonun ustuvorligini ta’minlovchi asosiy shartlar. Huquqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatda qonun ustuvorligi prinsipini ta’minlovchi asosiy shartlar quyidagilardan iborat.

Birinchidan, hokimiyatlar bo’linishi prinsipining real joriy etilganligi. Bu prinsipga ko’ra qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo’g’inlari o’zlarining Konstitutsiyada va qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar.

Konstitutsiya va qonunlarga nafaqat fuqarolar, uni qo’llovchi davlat idoralari va mansabdor shaxslar ham, shuningdek, qonunlarni yaratuvchi hokimiyat organi ham itoat etishga majbur. Hokimiyatlarning oqilona taqsimlanishi davlat tuzilmalarining samarali ishlashi, suiste’mollarning bartaraf etilishi, inson huquq

va erkinliklari amalda ta'minlanishi, umuman, demokratiya va qonun ustuvorligining muhim garovidir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93moddasining birinchi bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z farmonlari va huquqiy qarorlari bilan Konstitutsiyaviy tamoyillarning qonunlarda mustahkamlangan qoidalarining hayotga to'la joriy etilishi uchun yo'l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Prezidentning o'zi qonunlarga qat'iy amal qilishi bilan davlat idoralari va mutasaddi shaxslar uchun ibrat, namuna ko'rsatib, ularni ham Konstitutsiya va qonunlarga og'ishmay rioya etishga safarbar etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti 2002 yilning 4 yanvarida "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida" farmoyish qabul qilinganligi jamiyatda aholining huquqiy bilimdonligi va madaniyatini oshirish bilan birga Konstitutsyaning mavqeい va nufuzini ko'tarishga qaratilgan siyosiyhuquqiy tadbirdir.

Uchinchidan, joriy qonunlar va barcha normativ huquqiy aktlar Konstitutsiyaga tamomila mos va unga muvofiq yaratilishi lozim. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi.

Asosiy qonunimizning 16-moddasi ikkinchi bandida "Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas" deb qat'iy qilib belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ana shu muhim Konstitutsiyahuquqiy prinsipiga rioya etishni ta'minlashga intilib kelmoqda.

Konstitutsyaning ustuvorligini ta'minlash uchun alohida muhofaza mexanizmi bo'lishini taqozo etadi. Bunday mexanizmning asosiy va markaziy bo'g'inini – Konstitutsiyaviy sud tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sud o'z vazifalarini bajarishda mustaqildir va o'z faoliyatida faqat Konstitutsiya

normalari hamda qoidalariiga amal qiladi. Uning zimmasiga qonun chiqaruvchi, hukumat va davlat hokimiyyati mahalliy organlarining qarorlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Konstitutsiyaga sodiqlik, mustaqillik, oshkoraliq va sudyalar huquqlarining tengligi Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

To'rtinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi vositalardan biri kodekslashtirishdir. Kodekslar huquq tarmog'ining bosh qonuni sifatida Konstitutsiya prinsiplarini rivojlantirish yo'lida yaratiladi va ular konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlardan keyingi maqeni egallaydi. Kodekslar o'zining mantiqiy mukammalligi, pishiqligi, ichki barqarorligi huquqiy qoidalarga amal qilganligi tufayli kodeks normalari hayotda o'zining amalini oson topadi.

Beshinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omillarini quyidagicha e'tirof etish mumkin:

- qonun chiqaruvchi jarayonni muttasil demokratlashtirib borish – insonparvar, adolatli xalqchil qonunlar yaratilishining garovidir;
- qonunning sifatini mukammallashtirish, uning ichki mexanizmi puxta, yuridik texnika nuqtai nazaridan benuqson bo'lishiga erishish;
- qonunchilikni isloh qilish va takomillashtirishda “qonunda ta'qiqlanmagan hamma narsaga ruxsat beriladi” (fuqarolar uchun). “Faqat qonunda mustahkamlangan narsalargagina ruxsat beriladi” (mansabdor shaxslar va davlat idoralari uchun) degan prinsipga qat'iy amal qilinishiga erishish;
- qonunchilik faoliyatining yaqin yillar va istiqbolga mo'ljallangan strategiyasini hamda qonun ustuvorligini ta'minlash konsepsiyasini yaratish;
- qonunlar amal qilishining ijtimoiy mexanizmiga e'tibor qaratish. Bu sohadagi ijtimoiy omillar (ta'sir etuvchi kuchlar, vositalar) ni sinchiklab o'rganish;
- aholining huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish.

Oltinchidan, qonun osti, idoraviy normativ hujjatlarga havolalar, ya’ni ilovalar (shior va deklaratsiyalar tarzidagi normalar) ko’p bo’lishining oldini olish zarur. Bunday ilovalar haddan ziyod ko’p bo’lishi keyinchalik amaliyotda qonun chetda qolib, uning o’rnini idoraviy hujjat egallab olishi bilan qonun ustuvorligiga ziyon yetishi xavfini keltirib chiqaradi.

Ettinchidan, qonunlarning barqaror va ustuvor bo’lishiga erishish. Ularga teztez qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish, pirovard natijada qonunning ahamiyati va nufuzi tushib ketishiga olib keladi.

Sakkizinchidan, jinoiy jazolarni liberallashtirish qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim sharti bo’lib hisoblanadiki, biz mavzuni bayon qilish jarayonida bunga alohida to’xtalamiz.

To’qqizinchidan, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlashda prokuror nazoratining roli katta. Prokurorlik nazorati faoliyatida qo’llaniladigan taqdimnomalar, amrnomalar, ogohnomalar, qaror va arizalarning sifati va ta’sirchanligining yanada yuqori bo’lishida 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Prokuratura to’g’risida”gi Qonunda ko’zda tutilgan qonuniylik, odillik, mustaqillik va oshkorralik prinsiplari huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi. Bundan maqsad, xalqimiz ham, prokuratura xodimlari ham ushbu tamoyillarni aniq tasavvur etishlari kerak. Holbuki, fuqarolar har bir prokuratura xodimidan ushbu tamoyillarni ro’yobga chiqarishni talab qilish huquqiga ega. Prokurorlik nazorati olib borayotgan prokurorlar esa o’z faoliyatida shu prinsiplarga og’ishmay rioya etishi shart.

Shunday qilib O’zbekistonda huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash uchun kompleks tashkiliy huquqiy kafolatlar yaratildi. Albatta, konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar va yuridik mexanizmlarni muttasil takomillashtirib, ularning samaradorligini oshirib borish lozim. SHu o’rinda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta’minlashning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviyaxloqiy, ruhiy kafolatlari ham mavjudligini esdan chiqarmaslik lozim.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim sharti.

Mustaqillikka erishgandan keyin Prezident Islom Karimov tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalariga asoslangan jinoyat, jinoyat protsessual qonunlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi esa mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Masalan, Prezidentimiz tomonidan loyihasi kiritilib, 2001 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonun bilan jinoyatlarni tasniflash, yengillashtirish ma'nosida takomillashtirildi, yarashuv instituti joriy etildi. Jinoyat kodeksida o'lim jazosini nazarda tutuvchi moddalar soni keskin kamaytirildi, molmulkni musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator choratadbirlar qo'llanildi.

Ayniqsa, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida jinoiy jazo tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlash borasidagi say'harakatlar muhim o'rinni tutadi. Sudhuquq tizimini liberallashtirish to'g'risida Prezidentimiz “Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala – bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir”⁹ deganda aynan shu harakatlarni nazarda tutgan edi.

Ma'lumki, 1995 yilgacha amal qilgan Jinoyat Kodeksida 33 ta jinoyatga o'lim jazosi qo'llanilar edi. Keyingi Jinoyat Kodeksida esa ularning 13 tasi saqlanib qoldi, ya'ni 20 ta turdag'i jinoyatdan o'lim jazosi olib tashlandi. Jumladan, ayollar, oltmis yoshdan oshgan erkaklar va voyaga yetmaganlarga nisbatan bu jazo qo'llanilmaydi. SHuningdek, o'lim jazosi avf etish tartibida

⁹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O'zbekiston, 2005.

yigirma besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilishi mumkin (JK ning 51moddasi).

Ana shu ustuvor vazifadan kelib chiqib, 1998 yilda Jinoyat Kodeksidagi 5 ta moddadan o'lim jazosi olib tashlandi. 2001 yilda yana to'rtta moddaga jazo qisqartirildi. 2004 yilda esa bu jazo boryo'g'i ikkita, ya'ni aybni og'irlashtiruvchi holatda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlari uchun tatbiq etiladigan bo'ldi. Bular mamlakatimizning xalqaro huquq sub'ekti sifatida xalqaro hujjatlarga zikr etilgan majburiyatlarni so'zsiz bajarishga intilayotganining amaldagi isbotidir. Hozirgi kunda 100 ga yaqin davlatning qonunchiligida o'lim jazosi bekor qilingan. Jumladan, SHvetsiya va Finlandiya 1972 yilda, Germaniya 1949 yilda, Fransiya 1981 yilda, 1990 yillardan boshlab Irlandiya, Vengriya, Ruminiya, CHexiya, Slovakiya, SHveysariya, Gretsya, Polsha, Moldova, Italiya, Ispaniya davlatlari o'lim jazosidan voz kechgan. Bundan tashqari, 30 dan ortiq davlatning qonunchiligida o'lim jazosi mavjud bo'lsada, amaliyotda qo'llanilmaydi.

O'lim jazosini bekor qilish o'ta murakkab masala bo'lib hisoblanishini Prezident Islom Karimov ta'kidlab, "Birinchi navbatda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish lozim, chunki bugungi kunda ularning ko'pchiligi, o'lim jazosining bekor qilinishiga qarshi. Ikkinchidan, o'lim jazosi o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli jazoni o'tashga hukm qilinadigan shaxslar uchun tegishli joylar qurish kerak", degan fikrga alohida e'tibor qaratish lozim. O'lim jazosini bekor qilish masalasini aholiga tushuntirib berish ham anchagina murakkab jarayon bo'lib, bu ishga huquqshunoslar, mutaxassislar, siyosatshunos, psixolog va boshqa ko'pgina mutaxassislar jalb qilinishi lozim. Shuningdek, Prezidentimiz yuqorida ta'kidlaganidek, o'lim jazosi o'rniga sud tomonidan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan mahbuslar jazosi alohida koloniyada o'tashi lozim bo'lganligi sababli ularni saqlash bilan bog'liq jazoni o'tash muassasasini qurib bitkazish uchun byudjetdan tegishli mablag' ajratilishi va binoni tayyorlash ham ma'lum muddat talab etadi. SHu

sababli ham davlatimiz rahbari o’lim jazosini bekor qilish bilan bog’liq barcha tashkiliyhuquqiy jarayonlar 23 yil ichida amalga oshirish mumkinligini bildiradi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, inson hayoti dunyodagi eng oliv qadriyat hisoblanadi. Zero, hayot har bir insonga bir marotaba beriladi, shuning uchun ham undan mahrum etishga hech kim qodir emas, degan tushunchani barchaning ongiga singdirish lozim. SHu bois barcha islohotlar va qonunlar inson manfaatlariga xizmat qilishini nazarda tutsak, o’lim jarayonining jazo tizimidan olib tashlanishi har tomonlama adolatlidir.

Binobarin, davlatimiz rahbarining 2005 yil 1 avgustdagisi “O’zbekiston Respublikasida o’lim jazosini bekor qilish to’g’risida” gi Farmoni mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida mustahkamlash yo’lida qo’yilgan navbatdagi xayrli qadam bo’ldi, desak xato bo’lmaydi.

Qonun ustuvorligi tamoyilining O’zbekistonda fuqarolik jamiyatni qurilishidagi ahamiyati. Qonun ustuvorligini ta’minlash demokratik jamiyatni shakllantirishning asosiy vazifasi bo’lib hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, avvalo qonunlar fuqarolarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki bilan ishlab chiqiladi, ularning xohish va irodasini o’zida aks ettiradi. Ammo ko’pgina qabul qilingan qonunlar real hayotga joriy qilinmasdan qog’ozda qolib ketadi. Sababi, birinchidan, qonunni qabul qilish davridagi jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uni amalga oshirish imkoniyati o’rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi. Ikkinchidan, qonunlarni yaratishdagi mahorat va salohiyatning (professionalizm) yetishmasligidir. Uchinchidan, fuqarolarning ham qonunlardan to’la foydalanishga salohiyati yetarli darajada bo’lmasligi. Ammo, nima bo’lganda ham qabul qilingan qonunlarga amal qilish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Chunki, u nafaqat, huquqlar tizimi bilan, shuningdek mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiysiyoziy va ma’naviyma’rifiy hayoti bilan bog’liqdir. Ularni o’zida ifodalagan qonunlarning “ishonmasligi” yoki poymol qilinishi mavjud ekan, jamiyat hayotida ijobjiy o’zgarishlar sodir bo’lmaydi.

Mamlakat va fuqarolar manfaatlarining uyg'un holatda amalga oshuvining asosiy mexanizmi qonunlar oldida oddiy fuqarodan tortib eng yuqori lavozimni egallab turgan amaldorlarga barobarligi, ularning qonunlarga so'zsiz itoat qilishi hisoblanadi. Bu tamoyilni shakllantirish O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda.

Qonun ustuvorligiga xilof ish qilish va unga mensimay qarash, mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning oyoq osti qilinishi, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish qonunlarni obro'sizlantiradi, davlat va jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetkazadi, xalqning noroziligiga, haqqoniy e'tirozlariga sabab bo'ladi. Ayniqsa, fuqarolarning davlat tuzilmalari bilan munosabatlari jarayonida qonunlarga rioya etilishi yoki rioya etilmasligi fuqaro – davlat munosabatlarining butun bir tizimdagи ijtimoiy adolat qoidalarining holatini belgilab beradi.

Shu o'rinda mahalliy hokimiyat vakillari to'g'risida alohida to'xtalib o'tish zarur deb o'ylaymiz. Zero, islohotlarni amalga oshirishda, joylarda adolat qoidalarini o'rnatishda ularning o'rni katta bo'lishi zarur. Buning o'rniga mahalliy hokimiyat vakillari, hatto hokimlar tomonidan inson huquqlarini buzish holatlari, afsuski sodir etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida "Adolat qonun ustuvorligida degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashash g'oyasi ham fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'naliшlaridan birini tashkil etadi" – deb ko'rsatgan edi. Lekin qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga "etalon" bo'lishlari lozim bo'ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xattiharakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo'lishiga olib keladi. SHu ma'noda ham qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlardan ko'proq yetakchilik qilishlari talab etiladi. Qonunlarning har

qanday shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini real ta'minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo'ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, qonun ustuvorligi quyidagi uch holatda o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar adolat prinsipiga, inson huquqi va manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, barcha qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar talabi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan qat'iy bajarilishi shart.

Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi shart.

Demak, demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir.

2.2. Qonun ustuvorligini ta'minlashda sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasidagi vazifalar

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda.

Aynan shuning uchun ham biz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratganimiz beziz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarning ko'lami, miqyosi va samaradorligi keyingi o'n yillikda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko'tarilganini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirish maqsadida "Sudlar to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa o'z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini bergenini alohida ta'kidlash lozim.

Ayni paytda sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to'xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy

ish yurituvni qo‘zg‘atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo‘ldi.

Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug‘ullanish vazifasi maxsus organ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd etish lozim.

Shular qatorida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma – Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash departamenti tashkil etildi. Bu esa sudlarning ularga xos bo‘lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo‘lishi va butun diqqat-e’tiborini o‘zlarining asosiy burchi bo‘lmish odil sudlovnii amalga oshirish uchun qaratish imkonini berdi¹⁰.

Umumiylar yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tashkil etildi. Bu o‘z navbatida ularning jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko‘rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to‘la va har tomonlama himoya qilish bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta’minlash bo‘yicha katta ko‘lamdagagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Aynan ushbu davrda cassatsiya instansiyasi isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko‘rishning appellatsiya tartibi joriy etilgani ham muhim yangilik bo‘ldi. Mazkur o‘zgarishlarga muvofiq endilikda appellatsiya instansiyasi ishni yangitdan ko‘rib chiqishga yubormasdan, uni o‘zi to‘la hajmda ko‘rib chiqishi mumkin.

¹⁰ Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma yig‘ilishida so‘zlagan ma’ruzasi. 2010 yil 12 noyabr.

Bugungi kunda fuqarolar qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini cassatsiya instansiyasida, o‘z advokati ishtirokida bevosita himoya qilish imkoniga ega bo‘lishdi. Shu tariqa fuqarolarning birinchi instansiya sudlarining qarorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko‘rib chiqish tartibi batamom tugatilganini ta’kidlash lozim. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, joriy etilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslikning muhim kafolatiga aylandi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o‘zaro tortishuv bo‘lishini ta’minalashga, odil sudloving sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, 2008 yilda “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bu borada g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda amaldagi qonunchiligidizga sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta’minalash jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan advokatura mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi¹¹.

Ushbu qonunga muvofiq himoyachiga jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslardan mutlaqo mustaqil ravishda jinoyat ishi protsessining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam ko‘rsatish huquqi berilgani e’tiborga sazovordir.

¹¹ Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma yig‘ilishida so‘zlagan ma’ruzasi. 2010 yil 12 noyabr.

Shu bilan birga, himoyachining ko‘rilayotgan ishda ishtirok etish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlardan o‘ziga ijozat berilgani to‘g‘risida yozma ravishdagi tasdiqlovchi hujjat va shuningdek, o‘z himoyasidagi shaxs bilan uchrashish uchun ruxsat olish majburiyatini belgilaydigan normalar jinoyat-protsessual qonunchiligidan chiqarildi. Endilikda bularning barchasi uchun – shunga e’tibor beringlar – advokatlik guvohnomasi va advokatlik muassasasi tomonidan beriladigan orderning o‘zi kifoyadir.

Qonunda advokatning professional faoliyatiga to‘sinqinlik qilish, uning o‘z himoyasi ostidagi shaxsga nisbatan pozitsiyasini o‘zgartirish maqsadida har qanday shaklda ta’sir o‘tkazishga qaratilgan harakatlar uchun javobgarlik belgilanganini e’tirof etish zarur.

Shuni alohida qayd etish lozimki, jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo‘nalishga aylandi.

Ushbu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar, xususan, 2001 yilda “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunning qabul qilinishi ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etganini ishonch bilan ta’kidlash lozim.

Mazkur qonunga ko‘ra, jinoyatlarning tasnifi o‘zgartirildi. Buning natijasida og‘ir va o‘ta og‘ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga o‘tkazildi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo‘yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o‘rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo‘llash imkoniyati ancha kengaytirildi. Jinoiy jazo tizimidan insonparvarlik tamoyillariga mutlaqo zid bo‘lgan mol-mulkni musodara qilish tarzidagi jazo turi chiqarib tashlandi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o‘rnii qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi.

Aytish kerakki, jazo tizimini liberallashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan bunday chora-tadbirlarning naqadar to‘g‘ri bo‘lganini hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda. Ishonchim komil, xo‘jalik ishlari bilan bog‘liq jinoiy ishlar bo‘yicha odamlarni qamash shart emas – bu davlatga juda qimmatga tushadi, qolaversa, bunday jazo turi mahkumlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash vazifasini hal qilmaydi. Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bunday choralar natijasida O‘zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko‘rsatkichni, ya’ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko‘rsatkich 611 kishini, AQSHda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatimizda so‘nggi o‘n yilda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko‘proq kamayganining o‘zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir¹².

Ma’lumki, O‘zbekistonda 2008 yilning yanvaridan boshlab o‘lim jazosi bekor qilindi va uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi.

Mamlakatimizda o‘lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiatning katta e’tibor va e’tirofiga sazovor bo‘lgani albatta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o‘ta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta’kidlashiga ko‘ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko‘rsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O‘zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi

¹² Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma yig‘ilishida so‘zlagan ma’ruzasi. 2010 yil 12 noyabr.

Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, Shvetsiyada 13 ta, Fransiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo‘yicha tayinlanishi mumkin.

O‘zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo‘lib, faqat ikki turdag'i jinoyat, ya’ni javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi bizning mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas.

Aytinglar, aziz do‘srlar, mana shu olib kelingan dalillar O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin biz qo‘lga kiritgan eng katta, eng muhim yutuqlarimiz emasmi? Shu nuqtai nazardan qaraganda, yurtimizda haqiqatan hamadolat o‘rnatishda jinoyat yo‘liga kirganlarga eng odil hukm chiqarishda bu misollar yaqqol dalil emasmi? Bu masala bo‘yicha o‘zgalar, bizga aql o‘rgatadiganlar balki bizdan o‘rnak oladigan vaqt kelmadimi?

Mamlakatimizda o‘tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilganini ta’kidlash lozim.

Bu borada “Xabeas korpus” institutining joriy etilishi, ya’ni 2008 yildan ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o‘tkazilishi prinsipial qadam bo‘ldi. Ushbu qarorning o‘z vaqtida va puxta o‘ylab qabul qilingani bugungi kunda ko‘pgina amaliy misollarda o‘z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008 yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyyot chorasi qo‘llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda jinoiy-huquqiy sohani liberallashtirish borasidagi islohotlar haqida gapirganda, jinoyat-protsessual qonunchiligidan kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq tergov va shaxsni qamoqda saqlash muddatlari qisqartirilganini ta'kidlash lozim.

Shuningdek, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001 yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Yarashuv institutining talabiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lman jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplab bergen taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'ldi. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan.

Shu borada yana bir misolga e'tibor beraylik. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida o'tgan davr mobaynida 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

So'nggi yillarda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylikni ta'minlash borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, prokuratura faoliyatini isloh qilish, uni sobiq tuzum davrida bo'lganidek partiyaviy elita qo'lidagi jazolash quroli emas, balki qonunlarning qat'iy ijro etilishini, mamlakatimizda demokratik islohotlarning izchil rivojlanishini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan organga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Masalan, 2001 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarildi. Ayni paytda prokuraturaning inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'uliyati oshirildi.

Shuningdek, sud qarorlari ijrosini to‘xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining esa tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi.

Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo‘yicha oldimizda turgan keng ko‘lamli vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo‘yayotganini biz o‘zimizga albatta yaxshi tasavvur etamiz.

Bu boradagi vazifalarni samarali hal qilish maqsadida quyidagi tashkiliy-huquqiy choralarini amalga oshirish taklif etiladi.

Birinchi. Bundan o‘n yil oldin qabul qilingan amaldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qilishni bugun hayotning o‘zi talab qilmoqda. Ya’ni, o‘tgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni kengaygani va murakkablashgani, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshgani bu sohada qonuniylikni ta’minlashning yangi va yanada samarali mexanizmlarini yaratishni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariga mos bo‘lishini taqozo etmoqda.

Ikkinci. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish taklif etiladi. Bu o‘rinda sudga qadar ish yurituv bosqichida qo’llanadigan choralar, ya’ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo’llash tartibi nazarda tutilmoqda.

Ushbu vakolatlarning prokurordan sud organlariga o‘tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida “Xabeas korpus” institutini qo’llash sohasini yanada kengaytirish imkonini

beradi. Eng muhimmi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi¹³.

Uchinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasiga o'zgartish kiritish va unga muvofiq birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan norma o'rnatish taklif etiladi. Chunki amaldagi qonunchilikda davlat ayblovchisi, ya'ni prokuorning sud majlisida ayblov xulosasini o'qib eshittirish bo'yicha majburiyati aniq belgilanmagan. Shuning uchun ayblov xulosasi ko'pincha sudyalar tomonidan o'qib eshittiriladi. Bu esa sudning vazifa va maqsadlariga mos kelmaydi. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga yuqorida ko'rsatib o'tilgan normaning kiritilishi sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini ta'minlashga, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini kuchaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Ma'lumki, jinoyat ishini qo'zg'atish avvalo surishtiruv va dastlabki tergov organlari, jinoiy ta'qibni amalga oshiradigan boshqa huquq-tartibot organlarining vazifasi hisoblanadi. Suddan esa shaxsga qo'yilgan ayblovning qonuniy va asosli ekanini xolis baholash talab etiladi.

Vaholanki, hozirgi paytda sud tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish tarzidagi protsessual harakatning amalga oshirilishi mohiyatan jinoiy ta'qibning va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarning boshlanishi hisoblanadi. Bu esa sudni jinoiy ta'qib ishtirokchilari toifasiga kiritib qo'yadi. Aytish kerakki, bunday amaliyot sudning oliy maqsadi bo'lgan odil sudlovnii amalga oshirish tamoyiliga mutlaqo mos kelmaydi.

¹³ Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasi. 2010 yil 12 noyabr.

Beshinchi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish prinsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar tizimini belgilab beradigan “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish taklif etiladi. Ushbu qonunning maqsadi tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, qonuniylikka rioya qilishning real huquqiy kafolatlarini yaratishga yo‘naltirilgan. Bu qonunning qabul qilinishi demokratik davlatlarning umume’tirof etilgan amaliyotiga mos keladi. Ta’kidlash kerakki, bu qonun jinoyatlar sodir etilishining dastlabki bosqichlaridayoq ularning oldini olish va o‘z vaqtida to‘xtatish bo‘yicha choralarning samaradorligini, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, avvalambor, ichki ishlar idoralarining bu sohadagi faoliyatining yanada liberallashuvini ta’minlashga olib keladi.

Oltinchi. Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishslash va yangi tahrirda qabul qilish zarur.

Bunda avvalambor jinoyat qonunchilagini tobora liberallashtirish, ya’ni, ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma’muriy yurisdiksiyaga o‘tkazishni ko‘zda tutish zarur. Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o‘nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan ma’muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini, ya’ni bixillashuvini ta’minlaydi.

Shuningdek, ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta’minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo‘yicha choralarni ham mazkur kodeksda ko‘zda tutish lozim.

Yettinchi. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu

jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o'rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish talab etilmoqda.

Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo'llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o'tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo'lgan tegishli vakolatlarning berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi hamda ushbu organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sakkizinch. Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir¹⁴.

¹⁴ Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasi. 2010 yil 12 noyabr.

2.3. Yuksak huquqiy madaniyat – qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim sharti.

Jamiyatda insonlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida vazirliklar, davlat qo'mitalari, hokimliklar, jamoat tashkilotlari, korxonalar va muassasalar o'z vakolatlari doirasidan kelib chiqib faoliyat yuritadi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rzasida, jumladan, shunday deydi: «Mamlakatimizda Ombudsman, Inson xuquqlari bo'yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqsa. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik insti-tutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning zng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lган katta e'tiborni ko'rsatadi»¹⁵.

Shaxsning huquqiy madaniyati — huquqiy ongni aniq maqsadni ko'zlab tarbiyalash natijasi, uning eng yuqori bosqichidir. Demokratik huquqiy davlatni vaadolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida «Biz odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongni shakllantirishimiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi insoi erkinliklari — ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va mas'uliyat ekanligini chuqr his etib tursin»¹⁶.

Fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirishda davlatning fuqarolar murojaatlariga munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan faqat fuqarolarga emas, balki davlat ham manfaatdordir. Chunki fuqarolarning murojaatlari mamlakatda ularning umumiy ahvolini, siyosiy

¹⁵ И. Каримов. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т.. «Ўзбекис-тон», 2010, 43-6.

¹⁶ И. Каримов. Ҳозирги босқичда демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш-нинг муҳим вазифалари. Т., «Ўзбекистон», 1996, 25-6.

faolligini va turmush darajasini hamda ehtiyojlarini, talab-istiklarini ko'rsatuvchi ko'zgu vazifasini bajarishi, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o'z natijasini berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardanoq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi mamlakatda huquqiy demokratik davlat,adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolarning siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli ma'rzasida qayd etilganidek: «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz, avvalgicha qoladi — bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish, bozor iqtisodiyotini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»¹⁷.

Bugungi kunda jamiyatning umumiyligi madaniyatini, jumladan, fuqarolarning siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish — huquqiy davlatni barpo etish, shuning barobaridaadolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili sifatida maydonga chiqmoqda.

Demokratik huquqiy davlat ma'naviy jihatdan yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga tayanadi. Ushbu muhim metodologik qoida jamiyatimiz a'zolari tomonidan o'z vaqtida chuqur anglab yetildi. Bu bejiz emas edi, chunki aynan aholining siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali ularni demokratik yangilanishlar va isloxtlarning faol ishtirokchisiga aylantirish mumkin. Bu xususda I.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidladi: birinchidan, «O'zbekiston... o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

¹⁷ И. Каримов. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлашириш чва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т., «Ўзбекистон», 2005, 34-6.

Bu yo'lning mohiyati bozor munosabatlariga asoslangan erkin fuqarolar jamiyatini qurish, xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratib berishdan iboratdir»¹⁸. Bunga erishish uchun, avvalo, jamiyatning siyosiy faolligini oshirish taqozo qilinadi, ikkinchidan, «aholiga chuqur huquqiy bilimlar berishni yo'lga qo'yish, bu orqali huquqiy madaniyatni oshirishga erishish, ... tom ma'nodagi huquqiy ongni shakllantirish talab etiladi. Bu jamiyatning to'g'ri, demokratik yo'lidan rivojlanishi uchun zarurdir»¹⁹.

Bugun biz tarixiy bir davrda — mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bosqichida aholining, bolalar va yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ayniqsa, Konstitutsiya va qonunlarga g'oyatda chuqur hurmat g'oyasi hayot qoidasiga aylangan, jamiyat huquqiy tafakkurini rivojlantirish borasida to'g'ri va aniq maqsadni ko'zlab, ulkan natijalar qo'lga kiritilayotgan zamonda yashamoqdamiz. Huquqiy madaniyat kuzatish qiyin bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Huquqiy madaniyatning axborot, baholash va erk-xohish kabi elementlari mavjud. Inson qonunni anglab, uni baholab, qonunda nazarda tutilgan shartlarda nima qilish lozimligini hal etadi. Zero, qonun asosida harakat qilish shaxs, jamiyat va davlat manfaatiga to'liq mos keladi. Huquqiy madaniyatsiz shaxs, jamiyat, davlat hayotipi tasavvur etib bo'lmaydi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan «o'zbek modeli»ga mos holda barcha demokratik islohotlar Konstitutsiya va qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilayotgani barchamizga ayon. Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati islohotlarni amalga oshirishning, erkin va farovon jamiyat barpo etishning, huquqiy tafakkurli komil insonni shakllantirishning muhim tadrijiy shartidir. Milliy huquqiy tizimning jadal rivojlanayotgan sharoitida huquqiy madaniyatga ega bo'lgan shaxsgina islohotlarni amalga oshirishda faollik ko'rsata olishi, jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallashimiz uchun

¹⁸ И. Каримов. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-ж., Т., «Ўзбекистон», 1998, 25-26-6.

¹⁹ И. Каримов. Хапфеизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-ж., Т., «Ўзбе-кистон», 1998, 26-6.

fidoiylik bilan kurashishga qodir bo'lishi mumkin. O'tmishdan farqdi o'laroq, huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyatining zaruriy belgisi, huquqni amalga oshirish va uni himoya qilishning sharti sifatida insonni inson bo'lib shakllantirishda, qonunchilikka asoslangan barcha islohotlarni harakatga keltiruvchi kuch va yuridik «boylik» sifatida muhim ijtimoiy omyl bo'lmoqda. Eng avvalo, huquq normalari talablari bevosita insonlarga qaratiladi. Shu sababli bu talablar ularning erki-xohishi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuridik ustqurmaning ajralmas qismi sifatida shaxs va jamiyatning ma'naviy yuksalishi uchun zarurdir.

Istiqlol yillarida xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 iyundagi «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi Farmoni²⁰, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagи «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi»²¹ qabul qilingani buning yaqqol isbotidir. Ushbu huquqiy hujjatlarning bajarilishi bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirildi, tajribalar to'plandi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga itoatgo'ylik va hurmat ruhida tarbiyalash—bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хуқуқий тарбияни яхшилаш, аҳолининг хуқуқий маданияти даражасини юксалтириш, қуқуқшунос кадр-ларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, жамоатчилик фикрини ўрганиш ишини яхшилаш ҳақида»ги Фармони // «Халқ сўзи», 1997 йил 26 июнь.

²¹ Жамиятда хуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисинг Ахборотномаси. 1997, № 9, 227-модда.

chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi²².

Inson manfaatlarini himoya qilishda axloqiy tarbiya va huquqiy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mustaqillik qadriyatlarini e'zozlash, milliy iftixor tuyg'ularini to'la qaror toptirish, milliy istiqlol g'oyalariga sodiq bo'lish alohida o'rinni tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasiga ko'ra, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat faravonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Ushbu konstitutsiyaviy norma odob-axloq va huquqiy madaniyat qoidasi sifatida ijtimoiy adolatni ham o'z ichiga qamrab olgan. Ijtimoiy adolat — xulqning keng doirasini o'zida qamrab oladi va uning yaxlit mazmunini aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida axloqiy tushunchalar va normalar ifoda etilgan, xususan, Kodeksning 9-moddasiga ko'ra, fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi. Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy tamoyillari va axloqiy normalarini hurmat qshtishlari kerak. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 3-moddasida uning prinsiplari ifoda etilib, «insonparvarlik», «odillik» kabilar belgilab qo'yilgan. Ushbu Kodeksning 6-moddasida jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tugalgan hollarda jalb qilinishi .mumkinligi nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 4-moddasida fuqarolik sud ishlarini yuritishning prinsipi sifatida «ijtimoiy adolat», «fuqarolar o'rtasida tinchlik va milliy totuvlik» kabi qadriyatlar o'zining mujassam ifodasini topgan.

²² И. Каримов. Адолат қонун устуворлигига://Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-ж., Т., «Ўзбекистон», 2002, 28-6.

Jamiyat va davlat ijtimoiy faol, odobli, axlokli va qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalashdan manfaatdor. Milliy odob-axloq va huquqiy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalash demokratik huquqiy davlatning asosiy vazifasidir. Milliy huquqiy tizimni fuqarolarning huquq va erkinliklariga zid bo'limgan odob-axloq, huquqiy madaniyat va xavfsizligini ta'mishtash qoidalari bilan to'ldirib borish qonun ijodkorlik faoliyatining ham bosh mezoni bo'lishi kerak. Mustaqillik huquqiy tafakkuri, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik,adolatparvarlik, huquqiy merosni asrab-avaylash va ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida uni qaror top-tirishga, qolaversa, axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Abu Nasr Forobiy iborasi bilan aytganda, «aholisi xushxulqqa ega bo'limgan mamlakatda hokimiyatga ehtiyoj seziladi». Demak, jamiyatning nechog'liq demokratlashuvi fu-qarolar erki, hukuq, erkinliklari, burchlarini bajarishi, eng avvalo, adolatli jamiyat aholisining fe'l-atvoriga, ma'naviy-axloqiy va ularning huquqiy kamolotiga bog'liqdir. Milliy odob-axloq va an'analar ham shaxs huquqiy ongingin oshishida, va xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

Islom Karimovning quyidagi fikrlari nihoyat darajada ibratlidir: «Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda»²³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilin-ganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmoni mamlakatimizning

²³ И. Каримов. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т., «Узбекис-тон», 2010, 42-6.

inson huquqlariga sidiqligining va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olib, ijtimoiy hayotda qaror tottitirayotganining yorqin dalilidir. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, xalqaro huquq nuqtai nazaridan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» odob-axloq va huquqiy madaniyat alifbosidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning muqaddimasida insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinch-lik asosi ekani belgilangan. Mazkur Deklaratsiyaning 1-moddasiga ko'ra, hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladi. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak. Shuningdek, Deklaratsiyaning 29-moddasiga muvofiq, har bir inson o'z xuquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning xuquq va erkinliklarini de-mokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, faqat axloq, jamoat tartibi, umumiylar farovonlikning odilona talablarini qondirish maqsadida qonunda belgilangan cheklashlarga rioya etishi lozim.

«Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qo'shilgan birinchi hujjatdir. Ushbu Deklaratsiyaning qoidalari milliy qonuchilik tizimiga singdirilgan.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandapikning har qan-day ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir».

Bu o'rinda mamlakatimiz ikki palatali parlamenti tomonidan qabul qilingan qonunlar insonning yuksalishi va diyorimizdagи barcha islohotlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi, demokratik taraqqiyotga erishishning

muhim omili bo'lib hisoblanadi. Milliy huquqiy tizimni modernizatsiya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijalari har bir shaxsnyang manfaatiga xizmat qilayotgani, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan azaliy va zamonaviy milliy qadriyatlarning amaliy ifodasıdir.

Birinchi Prezidentimiz asosli ravishda ta'kidlaganidek, «umuminsoniy tamoyillar va me'yorlarni, butun dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlarni o'rghanmay va ulardan foydalanmay turib, demokratik institutlarni shakllantirish, fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratish mumkin emas»²⁴. Shu bilan birga, mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda xalqimizga xos xususiyatlar namoyon bo'lishi tabiiy. «Biz mustaqil huquqiy davlatni barpo etishning aso-siy maqsad va vazifalarini belgilar ekanmiz, O'zbekistonning sivilizatsiya va taraqqiyotning yuksak, yorqin cho'qqlariga erishishida madaniy va tarixiy merosning, xalqning insonpar-varlik an'analarining yuksak marralarini egallagan umuminsoniy qadriyatlар va me'yorlarga sodiq bo'lgan ozod va har to-monlama uyg'un kamol topgan shaxs asosiy tayanch bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaganmiz»²⁵, — degan edi I.Karimov.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» tom ma'noda milliy huquqiy donishmandlikning tarixiy an'analariga, inson manfaatlariga mos keladigan, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik huquqiy hujjat vazifasini bajarmoqsa. Bunday hujjatning xorijiy davlatlar qonunchilik amaliyotida kuzatilmasligi uning jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida barchaning havasini keltiradigan normativ-huquqiy huj-jat ekanidan dalolat beradi. Inson huquqi — ijtimoiy-ma'naviy, demokratik-huquqiy ong o'zagidir. Huquqiy madaniyat haqqoniy ahamiyat kasb etishi uchun insonlar

²⁴ И. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тавдид, бар-қарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.. «Ўзбекистон», 1997, 171-6.

²⁵ Ўша асап. 176-6.

nafaqat huquqni bilishi, balki ularda qat'iy ishonch, kafolat va hissiyot bo'lishi kerak. Shu ma'noda ham, yuksak huquqiy madaniyat barcha soha-dagi islohotlar, reja va dasturlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan, eng muhim, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichi vazifasini bajaradigan bashariyat e'zozlaydigan dunyoviy qadriyatdir. Qolaversa, huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan buyuk ijtimoiy-yuridik kddriyatdir. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat milliy g'oyamiz — yurt tinchligi. Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarga hamohang qadriyatdir. Huquqiy madaniyat dialektik juftlik bo'lган davlat va jamiyatning ajralmas elementidir. Yuksak huquqiy madaniyat — erkinlik va qonunga bo'ysunib yashash demakdir. Hayotimizni huquqsiz tasavvur etib bo'lmaydi, binobarin huquqni amalga oshirish va uni himoya qilish uchun shaxs huquqiy madaniyatga ega bo'lishi shart. SHu bois, huquqiy madaniyat demokratik taraqqiyotga erishishning davlat-huquqiy vositasidir.

Ma'lumki, milliy dasturning asosiy maqsadi aholi barcha qatlamlarining huquqiy savodxonlikka erishishi, yuksak dara-jadagi huquqiy ongga ega bo'lishi hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishi uchun huquqiy madaniyatni shakl-lantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir. Ushbu maqsadga erishish borasidagi asosiy vazifalar quyida-gilardan iborat:

- huquqiy ta'lif va huquqiy tarbiya tizimini takomshshashtirish;
- barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar va fuqarolarning qonunga hamda huqu^a hurmat bilan munosabatda bo'lishi-ga erishish;
- aholining huquqiy savodxonligini oshirish;
- fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlash.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish sohasidagi davlat siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi;

- Konstitutsiya va qonunning ustunligi;
- demokratiyaga asoslanganlik;
- ijtimoiyadolat;
- ilmiylik;
- uzlucksizlik;
- huquqiy tarbiyatadagi vorislik hamda umumiylig;
- huquqiy axborotning hamma uchun ochiqdigi;
- huquqiy tarbiya va huquqiy maorifning birligi hamda ularga tabaqlashtirilgan yondashuv.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

- fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini hamda ijtimoiy faolligi yuksalishini ta'minlash;
- aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;
- aholini huquqiy axborot bilan ta'minlash, ilmiy-ommabop yuridik adabiyotlar nashr qilinishi va tarqatilishini dav-lat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- huquqiy ta'limga va huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish;
- yuridik ta'limga, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini rivojlantirish;
- huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish;
- milliy an'analar hamda jahon tajribasidan foydalanish asosyda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish. Aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, bir tomondan, jamiyatning har bir a'zosi huquqiy

bilimlarning muayyan da-rajasini o'zlashtirib olishi uchun zarur bo'lган shartsharoit yaratishni, ikkinchi tomondan, turli ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy maorifni tabaqlashtirishni nazarda tutadi.

Mustaqillik yillarida aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, nafaqat demokratik jamiyat poydevorini mustahkamlash, balki huquqiy tizimni tadrijiy rivojlantirish im-konini yaratmoqda. Huquqiy madaniyatning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham mustaqillik qadriyatlari hayotiy ro'yobga chiqayotganining yorqin dalilidir. Har bir insonning huquqiy madaniyatli bo'lishi, qonunlarga qat'iy rioya etishi, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlagan holda qonun ustuvorligini ta'minlashda jamoatchilik fikri va nazoratini uyg'unlashtirishning demokratik asoslarini takomillashtirib borish kuchli fuqarolik jamiyatini qurishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Zero, huquq fuqarolik jamiyati rivojlanishida muxim o'rinn tutadi. U fuqarolik jamiyati a'zolari xulq-atvor qoidalarini belgilovchi oliy yuridik qadriyat sifatida jamiyat farovonligini ta'minlash hamda inson manfaatlarini himoya qilish vositasi hisoblanadi.

Aholining huquqiy madaniyatini shartli ravishda quyidagi bir nechta turlarga ajratish mumkin: konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat; tadbirkorlik huquqiy madaniyati; xalqaro — huquqiy madaniyat; ekologik huquqiy madaniyat; tibbiy huquqiy madaniyat; soliq huquqiy madaniyati; fuqarolarning huquq va manfaatlarini davlat organlari va sudda ximoya qilish bo'yicha protsessual-huquqiy madaniyat; ijtimoiy ta'minot huquqiy madaniyati; mehnat huquqiy madaniyati; ta'lim huquqiy madaniyati; fuqarolar erkinligi madaniyati; fuqarolar burchlarini bajarish madaniyati; oilaviy huquqiy madaniyat; saylov huquqi madaniyati; iqtisodiy-huquqiy madaniyat; xavfsizlik huquqiy madaniyati; bola huquqlari madaniyati va h.k.

Mamlakatda qonun ustuvorligiga erishish, butun davlat hokimiyyati tizimida qonunning mavqeい va vazifasini kengaytirish, qonunga bo'ysunib yashashni hammaning turmush tarziga aylantirish demokratik davlatning sifat ko'rinishi, fuqarolik jamiyatining beqiyos fazilati ekani ma'lum. Jamiyatga shaxsni huquqiy tayyorlashda yuridik bilimlarga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi, balki uni hayotga tatbiq eta bilish kerak. Shaxsning huquqiy ongi darajasi orqali jamiyatning huquqiy mada-niyati holatini anglab olish mumkin. Milliy mustaqillikka erishish zamirida ham milliy ma'naviy jasorat va huquq mujassamlashganini e'tirof etish joiz. Huquqiy madaniyat va tafakkurga ega bo'lgan shaxsgina keng ma'noda islohotlarning bardavomligini ta'minlashga qodir bo'ladi.

Bizga ma'lumki, huquqiy tafakkur — bu huquq asosida shakl-lanadigan ong va uning yo'lchi yulduzidir. U yuridik amaliyotda, huquqiy fanlarni o'qitishda, huquqiy tarbiya va targ'ibotda keng qo'llanadi. Bu tafakkur o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, haqqoniylik, aniqlik, huquqiy me'yorlar mohiyatini chuqur anglash, huquqiy idrok etish qobiliyatining namoyon bo'lishida ifodalanadi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida qator muammo va kamchiliklar ham mavjudki, ular kuyidagilardir:

— «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»ni kompleks monitoring qilish amaliyotiga talab darajasida e'tibor qaratilmayotgani;

— amaldagi milliy dasturning ayrim talab-qoidalarini bajarishga to'liq erishilmagani (masalan, jamoatchilik yuri-dik maslahatxonalar tashkil etish, O'zbekiston yuristlar uyush-masini tashkil etish, huluqiy tarbiyani qo'llab-quvvatlash bo'yi-cha hukumatga qarashli bo'limgan jamg'armani tuzish, mansabdar shaxslarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati darajasi-ga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish bilan bog'liq talablar ijrosi ta'minlanmagani);

- jamiyatda huquqiy matsaniyatni yuksaltirish bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirishning samarali tizimi yo'lga qo'yilmagani;
- huquqiy madaniyatga oid qonun hujjatlarining tizimlashtirilgan to'plami mayjud emasligi;
- huquqiy nashrlar adadining kamligi sababli ularni ququqiy axborot iste'molchilariga yetkazib berish imkoniyatining cheklangani;
- aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha davlat va nodavlat tashkilotlari ijtimoiy sherikchiligining me-xanizmi ishlab chiqilmagani;
- aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'iicha axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanish tizimi talab darajasida yo'lga qo'yilmagani;
- aholining xuquqiy madaniyatini yuksaltirish chora-tadbirlari tarqoq, mavsumiy tusda bo'lib, tizimlashtirilgan mazmunga ega emasligi;
- huquqshunos mutaxassislar va ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasida huquqiy madaniyat dasturlarini kompleks ro'yobga chiqarishning tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligi;
- huquqiy targ'ibot bilan shug'ullanadigan mutaxassislarning malakasi va kasb mahoratini oshirish bo'yichatizimli chora-tadbirlar ishlab chiqishga yetarli ahamiyat berilmayotgani;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi kollegial organlari va yi-g'ilishlarida «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»ning tegishli tarmoq yoki sohalarda ijro qilish holati bo'yicha ta'sirchanlikning yetishmasligi;
- aholining huquqiy madaniyati bilan shug'ullanadigan huquqiy soha xodimlari va huquqiy axborot iste'molchilar o'rtasida samarali va tizimli hamkorlik o'rnatilmagani;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali xuquqiy axborotni olishning samarali tizimi ishlab chiqilmagani;

— huquqiy axborot yetkazish bo'yicha tegiishi davlat hokimi-yati organlari matbuot xizmatlari faoliyatining sustligi;

— yuridik ta'lim xodimlari va boshqa huquqiy targ'ibot amaliyoti bilan shug'ullanadigan mutaxassislarni rag'batlan-tirish mexanizmining bugungi kun talabiga javob bermasligi va h.k.

Huquqiy madaniyat — huquqiy ong mahsulidir. Huquqiy ong ijtimoiy ong shakli bo'lib, u o'ziga xos holda fuqarolarning huquqiy munosabatlardagi ishtirokida namoyon bo'ladi. Huquqiy ong fuqarolardan jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya qilish, xulq-atvor me'yorlari va qoidalariga bo'ysunishni ham talab etadi. Huquqiy madaniyat, eng avvalo, demokratik qadriyatlarni insonlarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vositasidir. Zamonaviy huquqiy madaniyatli insonni tarbiyalamasdan turib kuchli fuqarolik jamiyati oldida turgan vazifalarni hal qilish qiyin masaladir. Ayniqsa, sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda bu qadri-yatning teran ma'no-mazmuni yanada yaqqol namoyon bo'ladi, bu uning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Axborot sohasini isloh qilish, so'z va axborot erkinligini ta'minlashda huquqiy axborot muxim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy madaniyatli inson o'zining turmush tarzini qonun asosida tashkil etishga erishishi moddiy hayot darajasini yaxshilashning ham muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirshda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi fuqarolarning orzu va intilishlarini qonunlar asosida ro'yobga chiqarish hamda dunyoga namoyish etishning amaliy ifodasi hisoblanadi. Fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish muammosi ulkan ijtimoiy, siyosiy ahamiyatga egadir. Fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahashshy davlat hokimiyati organlarining vazifalari haqida

qarashlar, tasavvurlarni tinglovchilarda hosil qilish muhim hisoblanadi. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyvdagi muammolarni hal etish zarur:

- jamiyatimizda ma'naviy yangilanish, demokratik o'zgarishlar sharoitida fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda yuqori siyosiy-huquqiy madaniyatni tarbiyalash borasida mahalliy davlat hoki-miyati organlarining mas'uliyatini oshirish zaruriyati;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishdagi istiqbol vazifalari;
- huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishning mohiyatini ko'rib chiqish, uning o'ziga xos tomonlarini yoritish;
- fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish borasida davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta'minlash;
- mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyatining fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish borasidagi faoliyatini kuchaytirish;
- fuqarolar siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishda hokimiyat vakillik organlari va hokimlarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro munosabatlari;

Demak, huquq madaniy fenomen sifatida umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismidir. Huquqiy madaniyat kishilar ijtimoiy hayoti huquqiy shakllarining barcha jihatlarini qamrab oladigan va ularning jamiyatda faolligini ta'minlaydigan barometrdir. Huquq jamiyat huquqiy madaniyatining ajralmas qismi va tarkibiy elementidir.

Xulosa

Qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda yuridik-huquqiy normalarni erkinlashtirish va yangilash, sud organlari faoliyatining tashkiliy shakllarini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini har tomonlama chuqur o'rganib chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalarining o'zaro munosabati masalasi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish dolzarb masaladir. Chunki aynan ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikriga, fuqarolarning huquqiy ongiga ta'sir o'tkazish hamda aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati cheksiz.

Istiqlol tufayli fuqarolarimizning dunyoqarashi va tafakkuri, huquqiy ongi va madaniyati tubdan o`zgardi. Ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshdi. Bu ijobiy jarayonlar kishiga mammuniyat bag'ishlaydi. Zero, biz demokratiya ne`matlarining iste`molchisi bo`lish bilangina cheklanib qolmasdan, balki ana shu ne`matlarni yaratuvchi faol shaxslar bo`lishimiz bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Fuqarolarimiz jamiyatda yuz berayotgan o`zgarishlarga befarq qarashdek eski zamon illatlaridan xalos bo`lmoqda, manfaatdorlki hissi qaror topmoqda. Demokratik ko`nikmalar fuqarolarimiz hayot tarziga tobora chuqur singib bormoqda. Bir so`z bilan aytganda, yurtimizda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy belgi va tamoyillari shakllanmoqda.

Vatandoshlarimizning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi esa, o`z navbatida, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish, erkinlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq.

Fuqarolik jamiyatining eng muhi institutlari sirasiga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mahalla, oila, shaxs kabi turli-

tuman sub`ektlari kirishini nazarda tutgan holda, shuni ta`kidlash o`rinligi, bu jarayonning ustuvor yo`nalishlaridan biri – nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirishdir.

Nodavlat notijorat tashkilotlariga fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatidagi alohida xususiyat baxsh etuvchi sifatlar quyidagilardir:

-birinchidan, ular fuqarolargi konstituciyyaviy asosda o`zaro birlashish, uyushishi huquqini ro`yobga chiqarishga imkon beradi;

-ikkinchidan, ular aholi turli guruh va qatlamlarining ijtimoiy manfaat va qiziqishlarini ifoda etadi;

-uchinchidan, ular fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishning muhim vositasidir.

“Odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro`y berayotgan demokratik o`zgarishlarning ko`lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda bu tashkilotlarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir”.

Fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan yana biri – ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish masalalari xususida to`xtalib, so`z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoraliqni, jamiyatda o`tkazilayotgan islohotlarning ichiqligini ta`minlaydigan demokratik principlarni hayotga keng joriy qilish – jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi eng muhim ustuvor yo`nalish ekanini ta`kidladi.

Mamlakat rahbari belgilab bergenidek, bu boradagi asosiy vazifa – mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo`lmish matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish. Ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta`minlashdan iborat.

Erkinliksiz demokratiya bo`lmaydi – bu oddiy haqiqat. Shunday ekan, matbuot erkinligini so`zda yoki qog'ozda emas, amalda ta`minlashga, barcha ommaviy axborot vositalarigi, mulki, shakli, tiraji, qamrovi hamda mavzu yo`nalishidan qat`i nazar, ularning mamlakatimiz axborot maydonida halol raqobat asosida faoliyat olib borishi uchun yaqin kelajakda davlat tomonidan zarur shart-sharoit yaratib berish, bu jabhadagi qonunchilik asoslarini yanada mustahkamlash lozim bo`ladi.

So`z va matbuot erkinligining hech bir qonun bilan tartibga solish mumkin bo`lmagan o`ziga xos jihatlari – sharqona odob, sharm-hayo, farosat, g'urur, burch va mas`uliyat haqidagi, xalq, Vatan, mustaqillik manfaatlari tushunchalari mazmun-mohiyati xususidagi fikrlari ham g'oyat ahamiyatlidir. Chunki bir barcha jabhalar qatori so`z va matbuot erkinligini ta`minlash, ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish borasida ham umume`tirof etilgan xalqaro mezonlar bilan o`zimizning ko`pmingillik madaniy-ma`naviy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkuri tarzi uyg'unligiga tayanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.: “O`zbekiston”, 2017. B76.
2. O`zbekiston Respublikasining Ta`lim to`g`risidagi qonuni. T.:1997 yil, 29 avgust.
3. O`zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to`g`risida»gi Qonuni//O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2014 y., 20-son, 221-modda.
4. O`zbekiston Respublikasi «Sudlar to`g`risida»gi Qonuni, 2001 yil 29 avgustdagи (yangi tahrirda). O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001y., 1-2-son, 10-modda; 2012 y., 38-son, 433-modda; 2014 y., 4-son, 45-modda.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida»gi PF—4947-son Farmoni//O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 y., 6-son.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentning “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida”gi Farmoni . 2019yil 9 yanvar
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PF-4850-son Farmoni//«O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami». 2016 y. № 43, 497-modda.
8. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivozlantirishni beshta ustivor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi. // www.lex.uz.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori//“Xalq so'zi”. 2006 yil, 26 avgust.
- 10.Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish - barqaror taraqqiyot kafolatidir. O'zbekiston Liberal- demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. O'z.Liberal-demokratik partiyasining rasmiy sayti.
11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi//«Xalq so'zi», 2016yil 8 dekabr.
- 12.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olivjanob xalqimiz bilan quramiz. Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi// «Xalq so'zi», 2016 yil 15 dekabr.
- 13.Mirziyoev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 yanvar oyida bo'lib o'tgan «Mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan majlisida so'zlagan nutqi // «Xalq so'zi», 2017 yil 16 yanvar.
- 14.Mirziyoev Sh.M. Ilm fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili// «Xalq so'zi», 2016 yil 31 dekabr.
- 15.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga

- kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.-T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016. - 56 6.
- 16.Mirziyoev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.:O'zbekiston UZE NMIU, 2017. - 592 b.
- 17.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- T.: "O`zbekiston", 2017. – 104 b.
- 18.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O`zbekiston", 2017. – 488 b.
16. Mirziyoev Sh.M. " Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir ". – T.: " O`zbekiston " NMIU. 2018. 508 b.
17. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T.: "O`zbekiston", 1996.
18. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.: "O`zbekiston", 1996.
19. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. 4-jild. T.: "O`zbekiston", 1996.
20. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. T.: "O`zbekiston", 1997.
21. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo`lida. 6-jild. T.: "O`zbekiston", 1998.
22. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild. T.: "O`zbekiston", 1998.
23. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: "O`zbekiston", 2000.
24. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz. 9-jild. T.: "O`zbekiston", 2001.
25. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. T.: "O`zbekiston", 2002.

26. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l – demokratik taraqqiyot va ma`rify dunyo bilan hamkorlik yo`li. 11-jild. T.: “O`zbekiston”, 2003.
27. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil, 28 yanvar.
28. Karimov I.A. O`zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.
29. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: “O`zbekiston”, 2009, 24-bet.
30. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T.:“Ma'naviyat”, 2008.
31. Gadoyboev A. Obod mahalla – odolatli, demokratik jamiyat tayanchi. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2003, 1-son.
32. Jo`raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (ilmiy-tahliliy maqolalar to`plami). T.: 2003.
33. Zokirov S. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sari: O`zbekiston Respublikasi I.A.Karimov asarlari asosida. T.: “Mehnat”, 1999.
34. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi – O`zbekiston taraqqiyotining kafolati. T.: “Adolat”, 2000.
35. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahrirda. T.: “Sharq”, 2008.
36. “Nodavlat notijorat tashkilotlar to`g'risida”gi O`zbekiston Respublikasining Qonunga sharhlar. T., 2002.
37. Norboev T. Demokratik jamiyatni shakllantirishda siyosiy muxolifat muammozi. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2003, 3-son.

38. Otamurodov S., Quvvatov N. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga: Oliy o`quv yurtlari uchun o`quv qo`llanma (mualliflar jamoasi) istiqlol, demokratiya fuqarolik jamiyat. T., 2003.
39. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma`naviyati. T.: “Ma`naviyat”, 1998.
40. Taraqqiyotning o`zbek modeli: “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” o`quv fani bo`yicha maxsus metodologik komissiya tavsiya etgan. T.: “Ijod dunyosi”, 2002.
41. Ergashev I., Sharipov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma`naviyat. T.: “Akademiya”, 2002.